



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.1.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

N. SALAYEV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

S. SAMADOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b. – bosh muharrir

D. BAZAROVA

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

K. HAKIMOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent – mas'ul muharrir

M. RUSTAMBAYEV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

F. RAXIMOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. ABDURASULOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

V. DAVLYATOV

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

S. NIYOZOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

SH. HAYDAROV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KABULOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. UMIRZAKOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Kriminologiya kafedrası boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A. BARATOV

TDYU Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi

I. ASTANOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. PULATOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-2179
Toshkent davlat yuridik universiteti ©



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA, JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Ergashev Ikrom Abdurasulovich

SOLIQQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR

ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK 4

Kamalova Dildora Gayratovna

IXTIYORIY QAYTISHNING JINOYAT TARKIBI BELGILARIGA KO'RA TAHLILI14

Ходжаев Шохрух Музаффарович

ПРИНЦИПЫ УГОЛОВНОГО ПРАВА И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ НА ПРАКТИКЕ24

Otegenova Luiza Joldasbayevna

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLARNING

QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI35

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Tulaganova Gulchexra Zaxitovna

ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA PROKURORNING O'RNI47

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV: HUQUQNI QO'LLASH MUAMMOLARI61

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.4.1./YBYX9307>
UDC: 342.9(045)(575.1)

SOLIQQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0002-3924-5182

e-mail: ikromabdurasulovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Hozirga qadar soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning ilmiy asoslari chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois sohaga oid amaliyot kuzatildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalasi huquqiy va iqtisodiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagani asoslandi. Soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning nazariy jihatlarini yoritib berishga harakat qilindi. Shuningdek, bugungi kunda dolzarb hisoblangan javobgarliklar toifasi – "soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik" tushunchasining mazmun-mohiyati tahlil etildi. Maqolada xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bo'yicha qiyosiy tahlil bilan birga, amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish asosida soliq intizomini buzish holatlarini kamaytirish imkoniyati va yaqin kelajakda qilinishi lozim bo'lgan harakatlar yoritilgan. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda soliq intizomini ta'minlash, soliq madaniyatini yuksaltirish va axborot texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish asosiy yo'nalish bo'lishi zarur, degan qat'iy pozitsiyani ilgari suradi. Shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolar tahlilidan kelib chiqib taklif va tavsiyalarini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: soliq intizomi, soliq tizimi, huquqbuzarliklar, soliqlar turlari, soliq majburiyati, soliq to'lovchi, javobgarlik, yuridik javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, huquqbuzarlik.

АДМИНИСТРАТИВНЫЕ НАЛОГОВЫЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ИХ СОВЕРШЕНИЕ

Эргашев Икром Абдурасулович,

доктор юридических наук, и. о. профессора

кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета



Аннотация. В данной научной статье анализируются правовые основы административной ответственности за налоговые правонарушения. Научные основы административной ответственности за налоговые правонарушения до сих пор глубоко не исследованы. Поэтому можно наблюдать в основном отраслевую практику. Кроме того, обосновывается, что в последние годы в Узбекистане вопрос административной ответственности за налоговые правонарушения с юридической и экономической точек зрения недостаточно изучен. Сделана попытка разъяснить теоретические аспекты административной ответственности за налоговые правонарушения. Также анализируется содержание понятия наиболее актуального правонарушения на сегодняшний день – «административная ответственность за нарушение налоговой дисциплины». В статье наряду со сравнительным анализом законодательства зарубежных стран освещается возможность снижения случаев нарушений налоговой дисциплины на основе совершенствования действующего законодательства и действий, которые необходимо предпринять в ближайшее время. Автор придерживается твердой позиции, согласно которой основным направлением поиска правового решения данных вопросов должны стать обеспечение налоговой дисциплины, повышение налоговой культуры и расширение использования информационных технологий. Вместе с тем в статье представлены предложения и рекомендации, основанные на анализе существующих проблем в данной сфере.

Ключевые слова: налоговая дисциплина, налоговая система, правонарушения, виды налогов, налоговая обязанность, налогоплательщик, ответственность, юридическая ответственность, материальная ответственность, административная ответственность, правонарушение.

ADMINISTRATIVE TAX OFFENSES AND RESPONSIBILITY FOR THE COMMITMENT

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,
Tashkent State University of Law,
Acting professor of the department of
Administrative and Financial law,
Doctor of Law (DSc)

Abstract. This scientific article analyzes the legal basis of administrative responsibility for tax offenses. The scientific basis of administrative responsibility for tax offenses has not yet been thoroughly studied. There is, in fact, legal practice in this regard. It is substantiated that in recent years in Uzbekistan, the issue of administrative responsibility for tax offenses has not been sufficiently studied from a legal and economic point of view. An attempt is made to clarify the theoretical aspects of administrative responsibility for tax offenses. It also analyzes the content of the concept of “administrative responsibility for violation of tax discipline,” which is the most relevant offense today. The article, along with a comparative analysis of the legislation of foreign

countries highlights the possibility of reducing cases of violations of tax discipline on the basis of improving the current legislation and actions to be taken in the near future. The author adheres to a firm position, according to which the main direction in the search for legal solutions to these issues should be to ensure tax discipline, increase tax culture and expand the use of information technology. At the same time, the article presents proposals and recommendations based on the analysis of existing problems in this area.

Keywords: tax discipline, tax system, offenses, types of taxes, tax liability, taxpayer, responsibility, legal responsibility, financial responsibility, administrative responsibility, offense.

Kirish

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz Prezidenti rahbarligida iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi modeliga asoslangan mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uni amalga joriy etish uchun moliya qonunchiligi, xususan, soliq qonunchiligi shakllandi va takomillashtirilib borilmoqda. Ammo qonunchilik qanchalik takomillashtirilmasin, ijtimoiy hayotimizda soliq qonunchiligi normalari, jumladan, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliq to'lovchilar tomonidan olingan daromadlarni turli yo'llar bilan yashirish holatlari hamon kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatimizning nafaqat iqtisodiyotiga, balki ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham, soliq qonunchiligi buzilishi, bu sohalarida ma'muriy javobgarlikni qo'llashda vujudga keladigan qonun buzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlar va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Soliq majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda javobgarlik masalasi bir soha bilan emas, balki ma'muriy, moliyaviy va jinoiy javobgarlik sohalarini bilan tartibga solinadi.

G'arb fanida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlariga nisbatan mavjud yondashuvlar "*homo economicus*" tushunchasi va oqilona tanlovning iqtisodiy modellaridan kelib chiqadi. Unga ko'ra, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar o'rtasidagi tanlov tegishli harakatning (harakatsizlikning) ijobiy hamda salbiy oqibatlarini oqilona tahlil etish natijalari bilan belgilanadi. Birinchisiga soliqlarni to'lamaslikdan kutilayotgan foyda, ikkinchisiga bog'liq xarajatlar (boqimandalik, jarimalar, reputatsion zararlar va boshqalar kiradi). Ushbu yondashuv, fikrimizcha, haddan tashqari texnologik va sxematikdir. Soliqlarni to'lashning ichki motivatsiyasi turli omillar bilan belgilanishi va har xil huquqiy madaniyatlarda farq qilishi mumkin" [1].

Ma'lumki, ma'muriy javobgarlik, o'z navbatida, soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llanadigan yuridik javobgarlikning asosiy turlaridan biri sanaladi. Umuman, huquq nazariyasida ma'muriy javobgarlik masalasi bir qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bu masalaga bir xil yondashgan, ya'ni ular ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning alohida turi sifatida

e'tirof etishgan. Biz ham mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning alohida turi deb hisoblaymiz.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining soliq sohasidagi vazifalari sohada o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarni, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, mulkning davlat va jamoat tartibini, soliq sohasidagi ijtimoiy adolat, qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, shuningdek, ularning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Huquq nazariyasiga murojaat etganimizda, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik masalasidagi ba'zi jihatlar bir qator huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik masalalari A.V. Andreyev, O.N. Gorbunova, Y.Y. Gracheva, M.V. Karaseva, Y.A. Kroxina, A.A. Li, A.A. Musatkina, A.A. Rahimova, E.T. Xojiyev, N.I. Ximicheva, Sh. Bilolxo'jayeva, G'T. Xakimov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur olimlarning ilmiy izlanishlari soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning quyidagi qator xususiyatlarini belgilab bergan: ma'muriy javobgarlik – ijtimoiy xavfi yuqori bo'lmagan huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llanadi; ma'muriy javobgarlik – fuqarolar yoki mansabdor shaxslarning soliq qonunchiligi normalarini buzishida ifodalanuvchi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligining oqibati hisoblanadi.

Y.N. Starilovning fikricha, "Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik soliq munosabatlarida davlat nomidan harakat qiluvchi davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan qo'llanadi..." [2].

Sh. Abduqodirov esa "Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquq me'yorlari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari hamda mansabdor shaxslari tomonidan protsessual tartibda ma'muriy jazoning qo'llanishidir" [3], deya ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlarimizdan E.T. Xojiyev soliq sohasida o'rnatilgan davlat boshqaruvini (tartibini); fuqarolarning huquq va erkinligini; ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarining o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishi; bunday huquqbuzarliklarning oldini olish; fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashni [4] soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning asosiy vazifalari sifatida ko'rsatadi.

L.V. Perekrestova, M.V. Vasilyeva va G.Y. Chuxnining qayd etishicha, "Soliq to'lovchi tomonidan soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda, qonun hujjatlarini buzgan shaxsga nisbatan soliq javobgarligi choralarini (soliq sanksiyalarini) qo'llashga olib keladigan, soliq to'lovchining budjetga soliq to'lashdan qochish yoki kamaytirishga qaratilgan xatti-harakatlari jinoiy bo'lmagan soliq to'lashdan bo'yin tovlash deb tushuniladi". Ularning fikricha, "Bu muammo soliq to'lovchilarning ma'naviy-psixologik holatida bo'lib, bu mavjud soliqqa tortish tizimiga salbiy munosabat bilan tavsiflanadi. Bunday munosabat ko'p jihatdan ularda soliq madaniyatining pastligi bilan bog'liq. Shuni inobatga olgan holda, soliqqa

oid jinoyatlarning oldini olish bo'yicha asosiy faoliyat aholining soliq madaniyati darajasini oshirish deb e'tirof etilishi lozim" [5].

Umuman, har qanday javobgarlikning faktik asosi qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bo'lganidek, ma'muriy javobgarlikning ham faktik asosi ma'muriy huquqbuzarlikdir. Shunga muvofiq, soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik ham soliqqa oid ma'muriy javobgarlikning faktik asosidir. R.T. Berdiyarov va Z.N. Qurbonovlarning fikricha, "Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlari bilan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan hamda soliq sohasida boshqaruvning o'rnatilgan tartibiga tajovuz qiladigan aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi" [6].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchisi – ma'muriy javobgarlik tushunchasi va u borada xorijiy hamda mahalliy olimlarning fikrlari qandayligi; ikkinchisi – soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning yuridik javobgarlik tizimida tutgan o'rni qandayligi; uchinchisi – soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning alohida xususiyatlari bor-yo'qligi. Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi.

Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik barcha soliq to'lovchilar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llanadi. Javobgarlikning mazkur ko'rinishi bevosita soliqqa oid huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Ma'lumki, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik masalalari qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, odillik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsiplariga asoslanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining soliq sohasidagi vazifasini bevosita mazkur prinsiplarga tayangan holda belgilashimiz mumkin. Bu vazifalar soliq munosabatlari sohasida o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarni, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat hamda qonuniylikni ta'minlash, soliq bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida obyektiv tarzda ko'rib chiqilishini, shuningdek, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat, rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ma'muriy javobgarlik tushunchasiga oydinlik kiritilmagan. Unda faqatgina ushbu kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu



huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmasa, amalga oshiriladi, deyish bilangina kifoyalangan.

Ma'muriy javobgarlikka nisbatan bunday yondashish, *birinchidan*, u haqda hech qanday tasavvur hosil qilmaydi, *ikkinchidan*, javobgarlikning bu turini javobgarlikning boshqa turlaridan ajratib olish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, Soliq kodeksida "soliqqa oid huquqbuzarlik" tushunchasi keltirilgan bo'lsa-da, "soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik" tushunchasining mazmuniy ifodasi keltirilmagan. *Kodeksda faqatgina soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi sifatida moliyaviy sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi bilan kifoyalangan. Fikrimizcha, har ikkala kodeksda ham yuqoridagi tushunchalar o'zining huquqiy ifodasini topishi lozim.*

O'zbekiston Respublikasida soliqqa oid ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari bevosita O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 264-moddasida nazarda tutilgan normalarda berilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar davlat soliq xizmati organlariga taalluqlidir.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, davlat soliq xizmati organining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'i, uning o'rinbosari, departament hududiy boshqarmalarining boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, tuman hamda shahar bo'limlarining boshliqlari tegishincha MJtKning 264-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralari qo'llashga haqlidirlar.

Masalan, jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi tomonidan 2022-yil 8-avgustda bo'lib o'tgan sud majlisida "Gulnora Golden Style" XK rahbari X. Qandimovaga Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan "Yakuniy soliq auditi tekshiruv" natijasiga ko'ra, 2022-yil 28-iyunda tuzilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga asosan 533 700 so'm aylanmadan olinadigan qo'shimcha soliq hisoblangan. Sud tomonidan ushbu tadbirkor O'zbekiston Respublikasi MJtKning 174-moddasi 1-qismi va 175-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan deb topilgan. Unga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi 1-qismiga asosan, ushbu kodeksning 33-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) baravari miqdorida, ya'ni 900 000 so'm jarima jazosi tayinlangan [7].

Fikrimizcha, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmaganligini qayd etish lozim. *Ammo soliq qonunchiligida yuridik shaxslarning javobgarligi nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, qonunchilikdagi yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi bilan bog'liq normalar o'zaro muvofiqlashtirilishi zarur.*

Shunday qilib, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik barcha soliq to'lovchilar uchun tatbiq qilinadigan umummajburiy qoidalarni buzganlik yoki rioya etmaganlik uchun qo'llanadi. Javobgarlikning mazkur ko'rinishi bevosita soliqqa oid huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Bizningcha, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik – soliq qonunchiligi buzilishi natijasida davlat tomonidan soliq to'lovchiga nisbatan soliqqa oid huquqiy normalarda nazarda tutilgan sanksiyalar belgilanishini o'z ichiga oluvchi majburlov chorasining qo'llanishidir.

Shu o'rinda soliqqa oid ma'muriy huquqbuzarliklarning yuridik tarkibiga ham e'tibor qaratish lozim. Huquqbuzarliklarning umumhuquq nazariyasida e'tirof etilgan tarkibidan kelib chiqib, ularning bir qancha ko'rinishlari mavjuddir.

Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning obyekti Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir. A. Mannonovning fikriga ko'ra, "Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning obyektiv tomoni deyilganda, soliq solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida sodir etilgan g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi" [8]. Mazkur huquqbuzarliklarning subyektlari esa huquqbuzarlikni sodir etgan va muomala layoqatiga ega bo'lgan javobgarlikka tortiluvchi shaxs hisoblanadi. Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalariga muvofiq, ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs huquqbuzarlikni sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi lozim.

Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning subyektiv tomoni esa huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayblilik darajasidir. Shunday qilib, mazkur yuridik tarkiblar soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilgan yoki sodir etilmaganini va unga nisbatan javobgarlik choralari belgilashda asosiy o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, shaxs soliq qonunchiligini buzganlik uchun huquqbuzarlik sodir etilgan paytda o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi talab etiladi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13-moddasi hamda Soliq kodeksining 211-moddasi). Soliqqa oid ma'muriy javobgarlikning subyektlari xususida gap borganida, avvalo, E.T. Xojiyev soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bunda shaxs nafaqat o'n olti yoshga to'lgan bo'lishi, balki qonun hujjatlari bilan unga soliq va boshqa to'lovlarni to'lash majburiyati ham yuklangan bo'lishi, mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z xatti-harakatlari oqibatini tushuna olishi, ya'ni aqli raso bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tgan [9].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmagan. Ammo O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 212-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi uchun tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmasligi belgilangan.

Umuman olganda, soliq sohasida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikda uning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, sodir etilgan



huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi. Ammo amaliyotda ayrim normalar bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash va ular bo'yicha ish yuritishda muddatlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Ya'ni soliqlar va yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash, soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik, buxgalteriya hisobotlarini yuritish bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqbuzarliklar faqat xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilganda aniqlanadi.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan taftish yoki tekshirishlarda o'rganish uchun to'liq moliya hisobot yillari olinadi va shuning oqibatida yuqorida bayon etilgan huquqbuzarliklar soliq to'lovchining oldingi yillardagi faoliyati bo'yicha aniqlanadi, lekin o'sha davrdagi huquqbuzarlik sodir etilgan kundan ancha vaqt o'tgan bo'ladi.

Huquqni qo'llash amaliyotida savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash, ular bo'yicha ish yuritishda ba'zan savdo shoxobchalarida yakka tartibdagi tadbirkorning yollanma xodimi yoki yuridik shaxs xodimi tomonidan xaridorlarga savdo faoliyatini amalga oshirishda nazorat kassa mashinasi cheki yoki unga tenglashtirilgan kvitansiyalarning berilmasligi, tovarlarni ustama narxlar asosida sotish, to'lov terminallari orqali savdo qilishni rad etish kabi holatlari uchraydi. Bunda huquqbuzarlik yakka tartibdagi tadbirkorning yollanma xodimi yoki yuridik shaxsning xodimi tomonidan sodir etilsa-da, amaliyotda ushbu huquqbuzarliklar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida yuzaga kelgani e'tiborga olinib, qo'shimcha ravishda yakka tartibdagi tadbirkorning o'ziga ham, yuridik shaxsning rahbariga nisbatan ham O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish) asosida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtirilib, sudlar tomonidan jazo choralari qo'llanmoqda.

Joriy etilgan tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish) dispozitsiyasi savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzishdir, ammo bunday huquqbuzarlikning sodir etilishida yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi ham savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish hisoblanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 19-bobida savdo qoidalarini buzish turlari keltirilgan bo'lib, bunda yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbari o'z qo'l ostidagi xodimlarni nazorat qilmasligi haqida so'z yuritilmagan.

Xulosa

Qonunchilikdagi mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni berish o'rinli deb hisoblaymiz:

*birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"*gi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 189-bandini *"Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining o'z bo'ysunuvidagi xodim tomonidan ushbu savdo qoidalariga rioya qilinishini ta'minlamasligi"* jumlasini bilan;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining 190-bandini "Savdo qoidalarini yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida uning bo'ysunuvidagi xodim tomonidan buzilganda qo'llanadi" jumlasini bilan;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish)ni esa "Savdo qoidalarining buzilishi yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarining nazoratsizligi oqibatida yuzaga kelganda, yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbariga nisbatan qo'llanadi" tarzidagi alohida qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Mazkur taklif huquqni qo'llash amaliyotida yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs rahbarlari va ularning xodimlari tomonidan savdo sohasida sodir etib kelinayotgan huquqbuzarliklarning obyektiv ko'rib chiqilishi, unda ayb uchun javobgarlik prinsipiga amal qilishda vujudga kelayotgan muammolarning bartaraf etilishiga yordam beradi.

O'z navbatida, aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 36-moddasida belgilab berilgan "Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin" degan normada bevosita soliq va valyuta to'g'risidagi qonunchilik hamda moliya-xo'jalik, buxgalteriya, moliya, statistika, bankka oid huquqbuzarliklar uchun belgilanishi kerak bo'lgan javobgarlik aniq ochib berilmagan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalarida belgilangan soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash, soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik va shu kabi buxgalteriya hisobotlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqbuzarliklar faqat xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilganda aniqlanadi. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan taftish yoki tekshirishlarda o'rganish uchun to'liq moliya hisobot yillari olinadi va oqibatda yuqorida bayon qilingan ma'muriy jazo qo'llanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 36-moddasini quyidagicha talqin qilish maqsadga muvofiqdir: "Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, *moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan* va davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin".



REFERENCES

1. Alm J., Torgler B. Culture Differences and Tax Morale in the United States and in Europe CREMA (2003, July). *Working Paper*, 2004, p. 14. Available at: <http://ssrn.com/abstract=562861>
2. Starilov Y.N. Otvetstvennost' za narusheniya nalogovogo zakonodatel'stva [Responsibility for violations of tax legislation]. Moscow, BEK Publ., 1996, pp. 494–495.
3. Abduqodirov Sh. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va uni yanada takomillashtirish istiqbollari [Reforms of the legislation on administrative responsibility and prospects for its further improvement]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, 2013, no. 5, pp. 14–15.
4. Xojiyev E.T. Soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik [Administrative responsibility in the field of taxation]. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2010, p. 37.
5. Perekrestova L.V., Vasil'yeva M.V., Chukhnina G.Ya. Mery po presecheniyu nalogovyx prestupleniy i ukloneniya ot uplaty nalogov grazhdanami [Measures to suppress tax crimes and tax evasion by citizens]. *Finance and Credit*, 2013, April, vol. 15 (543), pp. 47–62.
6. Berdiyarov R.T., Qurbonov Z.N. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, Yurist-media, 2010., pp. 240–242.
7. Archive materials of the Almazar district criminal court on criminal cases.
8. Mannonov A. Soliq solish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning ayrim jihatlari [Some aspects of administrative offenses in the field of taxation]. *Oliy xo'jalik sudi Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Economic Court*, 2009, no. 1, p. 25.
9. Xojiyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik [Legal liability for violation of tax legislation]. Tashkent, 2006, p. 102.
10. Taken from the materials of the case No. 7-1601-2022/4275 of the Uchtepa District Criminal Court of Tashkent city dated July 19, 2022.
11. Belousova S.S. Ugolovnaya otvetstvennost' za ukloneniye ot uplaty nalogov [Criminal liability for tax evasion]. Moscow, 1996, p. 92.
12. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2006, 395 p.
13. Mahkamov O. Soliq yoki yig'imlar uni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati haqida [About the crime of evasion of taxes or fees]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, 2010, no. 6, p. 43.
14. Krokhina Yu.A. Otvetstvennost' za narusheniya nalogovogo zakonodatel'stva: kontseptsiya, stadiya i mekhanizm realizatsii [Responsibility for violations of tax legislation: concept, stage and mechanism of implementation.]. *Economics and Law*, 2003, no. 5, pp. 102–111.
15. Mudrykh V.V. Otvetstvennost' za narusheniya nalovogo zakonodatel'stva [Responsibility for violations of tax laws]. Moscow, Yunitidana Publ., 2001, pp. 128–131.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.4.1./YJFQ4669>
UDC: 343.23(045)(575.1)

IXTIYORIY QAYTISHNING JINOYAT TARKIBI BELGILARIGA KO'RA TAHLILI

Kamalova Dildora Gayratovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
ORCID: 0000-0001-6747-8883
e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Annotatsiya. Jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning huquqiy tabiati yuzasidan mushohadalar XX asrning o'rtalaridan boshlab shakllangan bo'lib, o'sha davrda olib borilgan tadqiqotlarda uning bir qator tomonlari yoritilgan. Ushbu masalaning genezisiga e'tibor qaratar ekanmiz, ixtiyoriy qaytishning huquqiy oqibati borasida hanuz yagona qarash shakllanmaganini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida "Ixtiyoriy qaytganlik uchun jinoiy javobgarlik istisno etiladi" degan qoida belgilangan. Shunga qaramay, jinoyat huquqi doktrinasida ixtiyoriy qaytishning huquqiy oqibatini ayrim mualliflar "jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi", boshqalar "jinoiy javobgarlik istisno etiladi", yana bir guruh olimlar "jinoiy javobgarlikka tortilmaydi" sifatida ifodalanishi zarurligini bayon etgan. Mazkur fikrlarning asosi aslida ixtiyoriy qaytishda jinoyat tarkibi belgilari mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog'liq. Binobarin, shaxsni javobgarlikdan ozod qilish masalasi sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Maqolada jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoyat tarkibi belgilariga ko'ra tahlil qilingan, olimlarning bu boradagi pozitsiyalari tadqiq etilib, muallifning nuqtayi nazari asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatdan ixtiyoriy qaytish, jinoyat tarkibi, jinoiy javobgarlikni istisno qilish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jinoyatdan voz kechish.

АНАЛИЗ ДОБРОВОЛЬНОГО ОТКАЗА ПО ПРИЗНАКАМ СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Камалова Дилдора Гайратовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
декан факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Суждения о правовой природе добровольного отказа от преступления формировались с середины XX века, ряд аспектов данного



вопроса был освещён в исследованиях, проводившихся в те времена. Обращая внимание на генезис добровольного отказа, можно увидеть, что до сих пор не сформировано единое мнение в вопросе правовых последствий добровольного отказа. В действующем уголовном законе Республики Узбекистан установлено правило «исключения уголовной ответственности за добровольный отказ». В доктрине уголовного права в качестве правового последствия добровольного отказа отдельные группы авторов отмечали «освобождение от уголовной ответственности», другие – об «исключении уголовной ответственности», ещё одна группа учёных утверждает о необходимости отражения уголовно-правового последствия в виде «не привлечения к уголовной ответственности». Основание данных мнений, по сути, связано с наличием или отсутствием состава преступления при добровольном отказе. Следовательно, вопрос об освобождении лица от ответственности возникает при наличии признаков преступления в совершённом деянии. Поэтому в научной статье добровольный отказ от преступления анализируется с учётом признаков состава преступления, изучены позиции учёных по этому поводу, и на этой основе обоснована точка зрения автора.

Ключевые слова: добровольный отказ, состав преступления, исключение уголовной ответственности, освобождение от уголовной ответственности, отказ от преступления.

ANALYSIS OF VOLUNTARY RENUNCIATION BASED ON THE ELEMENTS OF A CRIME

Kamalova Dildora Gayratovna,
Tashkent State University of Law,
Dean of the Faculty of Criminal Justice,
Doctor of Philosophy in Law

Abstract. *Judgments about the legal nature of voluntary renunciation of crime have been formed since the middle of XX, a number of aspects of the question were covered in studies conducted at that time. Paying attention to the genesis of voluntary renunciation, you can see that is still not formed. Despite the fact that the current criminal law of the Republic of Uzbekistan establishes the rule «exclusion of criminal liability for voluntary renunciation». In the doctrine of criminal law as a legal consequence of voluntary renunciation, some groups of authors noted «exemption from criminal responsibility», others — about «exclusion of criminal responsibility», another group of scientists' claims that it is necessary to reflect the legal consequences in the form of «no criminal prosecution». The basis of these opinions is essentially related to the existence or absence of elements of the offence of voluntary renunciation. Therefore, the question of exonerating a person from responsibility arises where there is evidence of a crime committed in the act committed. Therefore, in the scientific article, voluntary renunciation of a crime is analyzed taking into account the features of the elements of*

the crime, the positions of scientists in this regard are examined, and on this basis the author's opinion is grounded.

Keywords: *voluntary renunciation, composition of the crime, exclusion of criminal responsibility, exemption from criminal liability, renunciation of the crime.*

Kirish

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to'xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, bu jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi. Qonunda belgilangan mazkur tushunchadan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy qaytishning huquqiy tabiati va kelib chiqadigan oqibatning jinoyat-huquqiy xususiyatini to'liq aniqlash imkoni yo'q. Bu esa quyidagi masalalarni yuzaga keltiradi: birinchidan, jinoyatni yakunlashdan voz kechgan shaxsning qilmishi jinoiy, lekin ixtiyoriy qaytganlik alohida xususiyatiga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishga olib keladi; ikkinchidan, ushbu qilmish qonuniy, natijada jinoiy javobgarlik shaklidagi oqibatlarga olib kelmaydi; uchinchidan, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish shaxsning qonuniy xulq-atvori va jinoyat o'rtasidagi chegara bo'lib, alohida xususiyatli qilmish va shuning uchun o'ziga xos huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Jinoyatdan ixtiyoriy qaytgan shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilmasligi uning sodir etgan qilmishida jinoyat tarkibi belgilari bor yoki aksincha, yo'qligini anglatadimi? Jinoyat kodeksining 16-moddasiga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortishning yagona asosi shaxsning sodir etgan qilmishida jinoyat tarkibi belgilarining mavjudligi hisoblanadi. Qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmagan shaxslarni har qanday holatda javobgarlikka tortish mumkin emas. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat qonunida belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan va qilmishida jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Shunga ko'ra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qonunda nazarda tutilgan muayyan holatlar bo'yicha davlat tomonidan jinoyat-huquqiy ta'sir choralarning qo'llanmasligi tushuniladi.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq etishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiylik, mantiqiylik kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Mazkur mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan M.X. Rustamboyev, A.S. Kayumov, R.R. Shakurov; xorijiy olimlardan A.A. Shakirova, I.M. Israfilov, M.Y. Malyar, A.A. Klyuyev, A.I. Orlova, S.Y. Sutsiyevlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning harakat (harakatsizligi)da jinoyat tarkibi bo'lmasa, u uchun jinoyat-huquqiy oqibatlar yuzaga kelmaydi, shuning uchun jinoyat-huquqiy ta'sir chorasi qo'llanmaydi. Ixtiyoriy qaytishning huquqiy oqibati jinoiy javobgarlikni istisno etishda ifodalanishi lozim.



Bugungi kunda jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning huquqiy tabiati va oqibatlari haqidagi qarashlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

Birinchi guruh vakillarining fikriga ko'ra, ixtiyoriy qaytish umuman olganda jinoiy qilmish, biroq qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat oxiriga yetkazilmaganligi rag'batlantirilib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish oqibati nazarda tutilgan.

Masalan, M.X. Rustamboyev "Boshlangan jinoiy faoliyatni to'xtatib, jinoiy javobgarlikdan qutulish imkoniyatining qonunda mustahkamlanishi shaxsni o'z jinoiy niyatini yakunlashdan bosh tortishga rag'batlantiriladi" [1, 242-b.], deb hisoblaydi. I.M. Israfilovning fikriga ko'ra, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish institutining mohiyati shundaki, "Ijtimoiy xavflilik xususiyati to'liq bartaraf etilmasa-da, shaxsning ijtimoiy xavfliligi pasayadi, og'ir oqibatlar kelib chiqishining oldi olinadi. Shunga muvofiq, sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi va jinoyat belgilari yo'q, deb tushunilmasligi lozim. Qonun chiqaruvchi mazkur holatda shaxsning ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirgan. Shuning uchun mazkur institut jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning reabilitatsiya asosi sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq" [2, 104-b.].

Ikkinchi guruh vakillarining ta'kidlashicha, ixtiyoriy qaytganlik uchun jinoiy javobgarlik istisno qilinadi, chunki jinoyatni oxiriga yetkazishdan voz kechgan shaxsning yoki qilmishning ijtimoiy xavfliligi mavjud emas.

Jinoyatdan ixtiyoriy qaytish normasining retrospektiv tahliliga e'tibor qaratar ekanmiz, XX asrning ilg'or olimlaridan biri quyidagilarni bayon etgan. "Boshlangan jinoiy faoliyatni davom ettirishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs jazolanmasligining sababi *faoliyatning ijtimoiy xavfli hisoblanmasligi* va natijada tugallanmagan jinoyat xususiyatini yo'qotishidir. Subyekt jinoiy harakatini davom ettirish niyatida bo'lmasa, jamiyat uchun ijtimoiy xavfli hisoblanmaydi. *Jinoyatdan ixtiyoriy qaytishda jinoyat tarkibi (tayyorgarlik va suiqasd) mavjud emasligi* haqidagi xulosa jinoyatni davom ettirishdan bosh tortishni jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi holat sifatida tan olish uchun zarur shart-sharoitlarni tahlil qilish orqali isbotlanadi" [3, 207–208-b.].

Bu borada quyidagi fikrini qayd etish o'rinli. "Jinoyatni davom ettirishdan ixtiyoriy voz kechish jinoiy faoliyatni to'xtatishga qaratilgan ongli harakat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bu harakat jinoyat sodir etish niyatining yo'qolganligi hamda jinoyatning asosiy moddiy belgisi hisoblangan *qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qolganini anglatadi*" [4]. Darhaqiqat, ixtiyoriy qaytishda boshlangan qilmishni shaxs o'z xohish-irodasiga ko'ra oxirigacha yetkazmaydi, tayyorgarlik ko'rish va suiqasd qilishga xos bo'lgan zarar yetkazish tahdidi mavjud bo'lmaydi.

Uchinchi guruh olimlarining nuqtayi nazariga ko'ra, ixtiyoriy qaytish uchun jinoiy javobgarlik istisno qilinishining sababi jinoyat tarkibi mavjud emasligi, ya'ni obyektiv va subyektiv tomon amalga oshirilishining to'xtatilishi hisoblanadi.

M.X. Rustamboyevning fikriga ko'ra, "Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish doimo jinoyat tarkibini istisno etadi" [5, 231-b.]. "Jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning mohiyati jinoiy faoliyatni davom ettirishdan to'liq va batamom voz kechish bo'lib, buning natijasida shaxs jinoyat tarkibi belgilari bo'lmaganligi tufayli jinoiy javobgarlikka tortilmaydi" [6, 273-b.]. Mazkur fikrni yanada rivojlantirib, B.B. Galiyev quyidagilarni bayon etgan: "Tamom bo'lmagan jinoyatdan farqli o'laroq, jinoyatdan ixtiyoriy

qaytishda shaxs *jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lmagan qilmishni sodir etishni to'xtatadi*. Jinoyatdan ixtiyoriy qaytgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish bilan qonun chiqaruvchi ikkita maqsadni ko'zlaydi: birinchidan, shaxsga o'z xatti-harakatining ijtimoiy xavfliligi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini anglash; ikkinchidan, jinoyat-huquqiy himoya ostidagi obyektga zarar yetkazish ehtimolining oldini olish" [7, 130-b.].

M.Y. Malyar fikriga ko'ra, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishda tamom bo'lgan jinoyat tarkibi (obyektiv belgi – JK Maxsus qismida ko'rsatilgan jinoiy qilmish mavjud bo'lmaydi) va tamom bo'lmagan jinoyat tarkibi (obyektiv belgi – JK Umumiy qismida nazarda tutilgan shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmaganligi) mavjud bo'lmaydi [8, 94-b.]. Mazkur fikrni davom ettirgan holda, A.A. Shakirovaning ta'kidlashicha, "Jinoyat ishtirokchilarining ixtiyoriy qaytishi o'z tabiatiga ko'ra jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi holat hisoblanadi. Ishtirokchilar jinoiy javobgarligini istisno etishning asosi jinoyatdan voz kechgunga qadar qilmishda tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyat tarkiblarining mavjud emasligi"dir [9, 7-b.].

Y.Y. Pudovichkinning fikricha, "Jinoyat sodir etishga qaratilgan harakatlarning ixtiyoriy to'xtatilgani shaxsning aybi va ijtimoiy xavflilik xususiyati mavjud emasligi, ya'ni qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yo'qligi, qilmish esa jinoyat turiga kirmay, uning sodir etilishi javobgarlikni istisno qilishini anglatadi" [10, 168-b.].

To'rtinchi guruh mualliflarining fikriga ko'ra, aksincha, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishda jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'ladi. Masalan, S.Y. Sutsiyevning qayd etishicha, "Jinoyatdan ixtiyoriy qaytish jinoyat tarkibi tuzilishi belgilariga to'la muvofiq kelib, obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon belgilariga ega, biroq ayrim (yoki muayyan) o'ziga xos farqlovchi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ixtiyoriy qaytishning obyekt subyekt tajovuz qilgan, biroq tashabbusiga ko'ra jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga zarar yetkazishning keyingi harakatlardan voz kechgan cheklanmagan doiradagi huquq va manfaatlar hisoblanadi. Obyektiv tomondan ixtiyoriy qaytish harakat (jinoyat vositalarini nobud qilish) va harakatsizlik (barcha tayyorgarlik harakatlarini to'xtatish) orqali amalga oshirilishi mumkin. Ixtiyoriy qaytish subyekt umumiy subyekt belgilariga to'la muvofiq keladi. Ixtiyoriy qaytishning subyektiv belgilari jinoyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglaganligi hisoblanadi" [11, 8-, 17-b.].

Bugungi kunda mazkur yondashuvlarning aksariyatida jinoyatdan ixtiyoriy qaytishda jinoyat tarkibi belgilari mavjud emasligi ta'kidlanadi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning qiyosiy-huquqiy tahliliga doir masalalar ko'rib chiqilgan. Jumladan, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning turlari va o'zaro farqli jihatlarining qiyosiy huquqiy tahliliga oid nazariya hamda amaliyot o'rganilgan. Masalan, zaruriy mudofaa holatida tajovuz qiluvchi mudofaalanuvchini ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga jismoniy yoki ruhiy majburlamasligi yoxud shunday majburlashni qo'llash bilan qo'rqitmasligi, shunday majburlash oqibatida mudofaalanuvchi o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmay qolishi mumkin emasligi ham tahlil etilgan. Bundan tashqari, muallif zaruriy mudofaa holatida mudofaalanuvchi o'zining yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilishda uchinchi shaxslarga emas, tajovuzchiga zarar yetkazishi mumkinligiga ham to'xtalgan. Maqolada ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatning bir turi ekanligi va uni zaruriy mudofaa hamda oxirgi zaruratdan ajratib turuvchi farqli jihatlar ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning xavf manbayi faqat ushbu shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganidir.

Kalit so'zlari: jinoyat, javobgarlik, zaruriy, huquqiy, shartlar, mezon, mudofaa, tajovuz, ijtimoiy xavfli, qiyosiy.

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, ИСКЛЮЧАЮЩИХ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ

Отегенова Луиза Жолдасбаевна,
самостоятельный соискатель Высшей школы судей
при Верховном совете судей Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье изучены вопросы, связанные со сравнительно-правовым анализом случаев, исключающих преступность деяния. Также в статье изучаются теория и практика различных аспектов видов дел, исключающих преступность деяния, и их сравнительно-правовой анализ. Например, анализируется случай необходимой обороны, когда агрессор физически или морально принуждает обороняющегося к совершению общественно опасного деяния или угрожает применением такого принуждения, и в результате такого принуждения защищающийся не может контролировать свои действия (бездействие). Кроме того, автор обращает внимание на то, что в случае крайней необходимости обороняющийся при защите своей или чужой личности или их прав, интересов общества или государства от противоправного посягательства агрессора может причинить вред третьим лицам. В статье подчёркивается, что причинение вреда лицу, совершившему общественно опасное деяние, при его задержании является разновидностью обстоятельств, исключающих преступность деяния, и приобретает значение необходимой обороны и черты, отличающие его от крайней необходимости. По мнению автора, источником опасности причинения вреда в момент задержания лица, совершившего общественно опасное деяние, является только факт совершённого этим лицом преступления.

Ключевые слова: преступление, ответственность, необходимость, правовое, условия, критерий, защита, агрессия, общественно опасное, сравнительное.

COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF CASES EXCLUDING THE CRIMINALITY OF THE CRIME

Otegenova Luiza Joldasbaevna,

Independent researcher of the Supreme
School of Judges under the Supreme Council
of Judges of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, the issues related to the comparative legal analysis of cases excluding the criminality of the act are analyzed. In particular, the theory and practice of the different aspects of the types of cases excluding the criminality of the act and their comparative legal analysis are studied. For example, in the case of necessary defense, the aggressor does not physically or mentally force the defendant to commit a socially dangerous act or threaten to use such coercion, and the article also analyzes that the defendant cannot control his actions (inaction) as a result of such coercion. In addition, it is mentioned that in the case of a necessary defense, the defendant harms the aggressor while protecting his or another person's person, rights, society, or state interests from illegal aggression (not third parties). In the article, the author emphasizes that as a type of situation that excludes the criminality of the act, it is damage during the arrest of a person who has committed a socially dangerous act, and that it is important to distinguish between necessary defense and last necessity. According to the author, the

source of danger in harming a person who has committed a socially dangerous act is only the fact that this person has committed a crime.

Keywords: *crime, responsibility, necessary, legal, conditions, criterion, defense, aggression, socially dangerous, comparative.*

Kirish

Jahonda qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar: huquqiy tabiati, tizimi va kvalifikatsiyasi bilan bog'liq normalarni takomillashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda bu borada davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, sodir etiladigan jinoyatlardan o'zini himoya qilish, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar bilan bog'liq normalarni tahlil etish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sifatida oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa ko'plab umumiy jihatlariga ega: ikkala holatda ham yetkazilgan zararda qonuniy, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar himoya qilinadi; ushbu institutlarning har biri insonning subyektiv huquqidir [1, 87-b.]. Ular nafaqat qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarni huquqiy baholash, balki ularning ijtimoiy foydaliligi va qonuniy faoliyat ekanligi bilan ham bir-biriga yaqindir. Qonun bilan himoya qilinuvchi manfaatlarni himoya qilish usuli ham o'xshash, ya'ni bunda qandaydir zarar yetkazish ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida keltirilganidek, oxirgi zarurat ham, zaruriy mudofaa ham shaxs, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolar tomonidan qo'llanadi.

Oxirgi zaruratda ham, zaruriy mudofaada ham tajovuzchiga zarar yetkaziladi. Shuningdek, ikkala holatda ham qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkaziladi, lekin boshqa kattaroq xavfning oldini olishga qaratilgani uchun jinoyat hisoblanmaydi.

Oxirgi zarurat va zaruriy mudofaaning o'zaro o'xshash jihatini ko'rsatuvchi eng asosiy belgi ikkala holatda ham qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa obyektlarga zarar yetkazilishidir. Sababi ikkala holatda ham qonun muhofazasida bo'lgan obyektlarga zarar yetkazmay, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa obyektlarni himoya qilishning iloji yo'q. Ikkala holatda ham zarar yetkaziladigan obyekt inson hayoti va sog'ligi hisoblanadi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning qiyosiy-huquqiy tahliliga doir ilmiy yondashuvlar tahlil etildi. Bunda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Zaruriy mudofaa va o'ta zarur hollarda muhofaza etiladigan manfaatlar doirasi chegaralanmagan bo'lib, mohiyatan ayrim harakatlarning mutanosiblik xususiyatlari

hamda chegaradan chiqish belgilari bir-biriga mos keladi. Chunki zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat chegaralaridan chiqish faqat qasddan sodir etilgan hollarda jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yana bir holat – oxirgi zarurat, ya'ni, zaruriy mudofaada odatda inson o'z irodasiga bog'liq bo'lmagan holatda, uni zarar yetkazishga majbur qiladigan vaziyatda bo'ladi.

Ba'zi olimlar zaruriy mudofaani oxirgi zaruratning "maxsus shakli" degan fikrni ham ilgari surishgan [2, 60–62-b.]. Yana ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, oxirgi zarurat qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi barcha holatlarning birlamchi asosidir [3, 79-b.]. Biroq shunga qaramay, mazkur ikki qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni chuqurroq o'rganish davomida ularning bir qancha farqlari mavjudligini aytib o'tishimiz mumkin. G.F.Hametdinovanning so'zlari bilan aytganda, darhaqiqat, "Ikki holatning qiyosiy tahlili qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda zarar yetkazishda jinoyat qonunida belgilangan cheklashlarga doir farqlarni ajratish imkonini beradi" [4, 147-b.].

Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda zaruriy mudofaa hamda oxirgi zaruratning bir-biridan farqlanuvchi tizimini yaratishda ularga turli tomondan yondashgan holda o'zaro farqli jihatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

Birinchi farqlanuvchi holat zarar yetkazishning huquqiyligi bo'lib, bunda zaruriy mudofaa holatida ijtimoiy xavfli hujum, oxirgi zaruratda esa har qanday xavfning real mavjudligi bilan baholanadi.

Ikkinchi farqlanuvchi holat zarar yetkazish huquqi vujudga kelgan payt bo'lib, zaruriy mudofaada ijtimoiy xavfli qilmish haqiqatan mavjudligi mudofaalanuvchi tomonidan idrok etilgan vaqt bilan, oxirgi zarurat holatida esa sodir bo'lishi aniq va real xavfning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Uchinchi farqlanuvchi holat zarar yetkaziladigan obyektlar doirasiga zaruriy mudofaada tajovuz qiluvchining huquq va manfaatlari bo'lsa, oxirgi zarurat holatida cheklanmagan doiradagi shaxslarning huquq va manfaatlari bo'lishi mumkin.

To'rtinchi farqlanuvchi holat zararni bartaraf etish uchun qo'llanadigan usul va qurol bo'lib, zaruriy mudofaada tajovuz mudofaalanuvchi lozim topgan usul hamda qurol bilan bartaraf etiladi. Oxirgi zaruratda xavfni bartaraf etish usuli va qurolni tanlash imkoni mavjud emas, chunki mavjud usul yagona bo'lishi shart.

Beshinchi farqlanuvchi holat yetkazilgan zararning xarakterini ifodalab, zaruriy mudofaada u tajovuzdan kutiladigan ijtimoiy xavfning tabiati va darajasiga, uning intensivligi hamda usuliga mos kelishi kerak. Oxirgi zaruratda kelib chiqishining oldi olingan zarardan qat'iy kam bo'lishi kerak.

Oltinchi farqlanuvchi holat maqsad bilan bog'liq bo'lib, zaruriy mudofaada tajovuzni to'xtatish, oxirgi zaruratda xavfni bartaraf etish maqsadi bo'ladi.

Yettinchi farqlanuvchi holat mazkur huquqdan foydalanishni cheklashi mumkin bo'lgan sharoitlarning mavjudligidir. Zaruriy mudofaa vaziyatida bu kabi holatlar mavjud emas, oxirgi zaruratda esa zarar yetkazmasdan xavfni bartaraf etish imkoniyati yo'q. Bundan tushunish mumkinki, zarar yetkazmasdan xavfni bartaraf etishning boshqa yo'llari bo'lsa, zarar yetkazish huquqiy sanalmaydi.



Oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa o'rtasidagi farqlardan yana biri shundaki, oxirgi zarurat holatida nafaqat ijtimoiy xavfli tajovuz, balki boshqa har qanday xavf manbalari ham qonun bilan himoya qilinuvchi huquq va manfaatlarga tahdid solishi mumkinligidir.

Oxirgi zarurat asosi – vujudga kelgan xavfni bartaraf etish zarurati, zaruriy mudofaa asosi esa ijtimoiy xavfli tajovuzni daf etish zaruriyatidir. Shundan kelib chiqib, zaruriy mudofaa holatiga har doim noqonuniy tajovuz, ya'ni faol harakat sabab bo'lgan holda, oxirgi zarurat holati harakat yoki harakatsizlikdan kelib chiqishi mumkinligini xulosa qilish mumkin. Bu ham ularning yana bir farqidan dalolat beradi.

V.I.Tkachenko tahlil qilingan holatlar o'rtasidagi yana bir farq sifatida oxirgi zaruratning ham harakatsizlik, ham harakat bilan amalga oshirilishini, zaruriy mudofaa esa faqat harakat bilan amalga oshishi mumkinligi sabab farq qilishini ko'rsatib o'tadi. U misol sifatida shifokorning ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan bemorlarni ko'rikdan o'tkazish bilan bandligi sababli boshqa bir bemorga yordam uchun bora olmasligini keltiradi. Bunda oxirgi zarurat amalga oshirilishi harakatsizlik bilan sodir etilmoqda. Biz ham ushbu farqning mavjudligini inkor qilmaymiz, lekin bu fikrga to'liq qo'shilmaymiz ham.

Oxirgi zarurat va zaruriy mudofaaning yuqoridagi farqi haqidagi fikrimizning davomi sifatida shuni qo'shimcha qilamizki, agar inson zaruriy mudofaa bilan ijtimoiy xavfli hujumga faol qarshilik ko'rsatishga majbur bo'lsa, oxirgi zaruratda aralash holat yuz beradi. Chunki shaxs xatti-harakat tanlovini amalga oshirib, bir yaxshilik foydasiga harakat qiladi, boshqasiga nisbatan harakatsizlikka majbur bo'ladi.

Ikki holatning qiyosiy tahlili zarar yetkazish hollarida jinoyat qonunchiligida belgilangan cheklashlarga doir farqlarni ajratish imkonini beradi. Agar zaruriy mudofaa holatida zarar tajovuzning xususiyati va xavfliligiga aniq nomuvofiq bo'lmasligi kerak bo'lsa, oxirgi zaruratda yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo'lishi shartdir.

Bu kabi cheklovlar zaruriy mudofaa holatida bekor qilinishi mumkin. Faqat bunda tajovuz hayot uchun xavfli xususiyat kasb etgan bo'lsa yoki vaziyatning bunday emasligini obyektiv anglashning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda bekor qilinadi.

Qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatning bir turi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish bo'lib, uni zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratdan ajratib turuvchi jihatlar quyidagilarda ko'rinadi: ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishda xavf manbasi faqat ushbu shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi hisoblanadi; zarar ham faqat shu shaxsga yetkaziladi, unga yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroq yoki hatto undan ko'p bo'lishi ham mumkin. Bunda maqsad – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga olib borish va uning yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish sanaladi. Jinoyatchini ushlashda tashabbus bu huquqqa ega bo'lgan shaxsning o'zidan kelib chiqadi hamda bu huquqni amalga oshirish natijasida jabrlangan shaxsga yetkazilgan zarar qoplanmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning erkinligini qisqa muddatga cheklash tarzidagi ushlab turish shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida amalga

oshirilganida qonuniy hisoblanadi, boshqa maqsad ko'zlangan taqdirda shaxsning bunday qilmishi jinoyat deb topiladi [5, 408-b.].

Tergov va sud amaliyotida u yoki bu qilmishni zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish deb topishda ularni sodir etilish belgilariga ko'ra farqlash masalasida ayrim qiyinchiliklar mavjud. Shu bilan birga, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qila olish: birinchidan, jinoiy javobgarlikka tortiluvchi shaxsning huquqiy maqomini belgilash; ikkinchidan, Jinoyat kodeksi oldida turgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash; uchinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning obro'-e'tibori va nufuzini ko'tarish uchun muhimdir. Shu sababli tergov va sud organlari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish institutini zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratdan farqlashda quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

ushlashga bo'lgan huquq ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi bilan vujudga kelsa, zaruriy mudofaa mudofaalanuvchi shaxsga qarshi yo'naltirilgan tajovuz sodir etilishi bilan, oxirgi zaruratga bo'lgan huquq esa nafaqat shaxsdan, balki xohlagan manbadan kelib chiquvchi xavfning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi;

ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash bo'yicha tashabbus barcha hollarda bunday huquqqa ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda esa shaxs bunday sharoitga kirib qolishi tufayli majbur bo'ladi;

ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash huquqi bunday qilmish sodir etilishi bilan vujudga keladi va amalga oshiriladi. Zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat esa tajovuz yoki xavfning amalga oshirilishi fakti bilan shartlangan bo'ladi;

ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashdan asosiy maqsad – bunday shaxsni hokimiyat organlariga topshirish bo'lsa, zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda esa tajovuzchini yengish va xavfni bartaraf etish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Zaruriy mudofaaning yuridik tahlili hamda kvalifikatsiya qilish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga S.F.Milyukov va boshqalar tomonidan chop etilgan, o'zini o'zi himoya qilish huquqi doirasida zaruriy mudofaaning ilmiy va amaliy asoslariga bag'ishlangan monografik tadqiqot [6], V.Orexov [7], Y.V.Avdeyeva [8, 16–20-b.], N.A.Vorobyova [9, 88–91-b.], A.V.Nikulenko, M.A.Smirnov [10, 111–117-b.], Y.V.Seregina [11, 151–154-b.], A.A.Maksurov [12. 22–24-b.], S.A.Rumyansev [13, 407–412-b.], A.M.Vasilyev [14, 7–11-b.], D.A.Pesterevlarning [15, 127–129-b.] zaruriy mudofaa holatini aniqlashning ilmiy-amaliy muammolari hamda sudlar tomonidan ushbu normalarni qo'llashga bag'ishlangan ilmiy maqolalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuridik adabiyotlarda zaruriy mudofaa tushunchasi haqida turli ta'riflar berilgan. Quyida mazkur tushunchalarni tahlil etgan holda, ayrim tadqiqotchilarning fikrlarini keltirib o'tamiz. Ayrim olimlar "Zaruriy mudofaa – jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli tajovuzdan tajovuzkorga zarar yetkazish orqali mudofaalanuvchining yoki boshqa shaxsning huquqlari va manfaatlari yoxud jamiyat va davlatning qonuniy himoyalangan manfaatlarini himoya qilishdir" [16, 613-b.], deb ta'riflagan.



O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuniga asosan esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasi beshinchi qismi chiqarib tashlandi, mazkur moddaning birinchi qismiga ko'ra, zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Bunda qonun mazmuniga ko'ra, zaruriy mudofaa faol harakatlar orqali amalga oshiriladi. Qonunda belgilanishicha, boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so'rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o'zga yo'sinda (masalan, qochib ketish orqali) qutulish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, zaruriy mudofaa aktini qo'llash mudofaalanuvchining tegishli huquqidir. Ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, zaruriy mudofaa aktini qo'llamagan kishining harakatlarini jamiyat ham, kishilar ham ma'qullamaydi.

Ammo zaruriy mudofaa aktini qo'llamaganlik uchun javobgarlik belgilanmagan va bizningcha, belgilash ham mumkin emas. Chunki zaruriy mudofaa aktini qo'llash mudofaalanuvchining hayoti yoki sog'lig'ini jiddiy xavf ostiga qoldirib, tavakkal qilish bilan bog'liq bo'lib, faol harakatlar bilan tajovuzni bartaraf qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 41¹-moddasida belgilangan jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qo'llash bilan qo'rqitish natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazishning farqlari aniqlashtirib ko'rsak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 41¹-moddasi birinchi qismida agar bunday majburlash yoxud qo'rqitish oqibatida shaxs o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmagan bo'lsa, bu jinoyat hisoblanmasligi keltirilgan.

Ular aynan shu qoida bilan boshqa qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlardan farqlanadi. Masalan, zaruriy mudofaa holatida tajovuz qiluvchi mudofaalanuvchini ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga jismoniy yoki ruhiy majburlamaydi yoxud shunday majburlashni qo'llash bilan qo'rqitmaydi. Shunday majburlash oqibatida mudofaalanuvchi o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmay qolishi mumkin emas. Shuningdek, zaruriy mudofaa holatida mudofaalanuvchi o'zining yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilishda tajovuzchiga zarar yetkazadi (uchinchi shaxslarga emas). Shu nuqtayi nazardan qaralsa, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish zaruriy mudofaadan ko'ra ko'proq oxirgi zaruratga yaqindir. Mazkur ikki holat o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqsak:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 41¹-moddasi ikkinchi qismida majburlash yoki qo'rqitish oqibatida shaxs o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqarish imkoniyatini saqlab qolgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik to'g'risidagi masala oxirgi zarurat qoidalari qo'llangan holda hal etilishi belgilangan. Ushbu holatlar o'rtasidagi muhim farq irodalilik belgisidir. Oxirgi zaruratda shaxs o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni unda xavfning oldini olish yoki olmaslik to'g'risida qaror qabul qilish erkinligi bo'lsa, jismoniy yoki ruhiy

majburlash yoxud qo'rqitishda esa shaxs majburlanishi oqibatida o'z harakatlarini (harakatsizligini) boshqara olmay qolishi, majburlashga duchor bo'lgan shaxsning irodasi butunlay yengilgan bo'lishi lozim.

Jismoniy yoki ruhiy majburlash holatidagi xavf manbayi majburlash ostida harakat qiluvchi va jinoyatchining irodasini bajaruvchining xatti-harakati bilan yaratiladi [17, 37-b.]. Huquqiy oxirgi zarurat holatida esa xavf mazkur xavfni bartaraf etish uchun ushbu huquqdan foydalanuvchi shaxs tomonidan yaratilishi mumkin emas.

Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitishda faqat jismoniy shaxslar xavf manbayi bo'la olgan holda [18, 40-b.], oxirgi zaruratda xavf manbayi turli-tuman bo'lishi mumkin.

Oxirgi zaruratda mustaqil subyekt bo'lmish shaxs o'z irodasiga bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Jismoniy yoki ruhiy majburlashda shaxs jinoiy niyatga erishish uchun zarar yetkazuvchi vosita yoki qurol sifatida ishlatiladi.

Agar oxirgi zaruratda yetkazilgan zarar katta xavfning oldini olish orqali ifodalansa, majburlash natijasida yetkazilgan zarar hech qanday yo'l bilan qoplanmaydi, biroq majburlash ta'sirida subyektning qilmishida aybning yo'qligi qilmishning jinoiy xususiyatini istisno qilishga imkon beradi.

Oxirgi zaruratda inson turli ijobiy sabablarga ko'ra yaxshilikni asrash maqsadida harakat qiladi. Majburlashga duchor bo'lgan shaxsning harakatlari maqsad va motivga ega emas, chunki qilmish uning irodasiga qarshi amalga oshirilgan bo'ladi.

Ko'rinib turganidek, shu kabi farqlarning mavjudligi bir-biriga o'xshash ushbu qilmishlarning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning o'ziga xos jihatlari ajratishga asos bo'ladi.

Zaruriy mudofaani alohida tahlil qilarkanmiz, uning chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq jinoyatlardan (O'zbekiston Respublikasi JKning 100-, 107-moddalari) kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining (JKning 98-, 106-moddalari) farqlarini o'rganish muhim deb hisoblaymiz.

Ular uchun umumiy bo'lgan jinoyatning *obyekt, zo'ravonlik harakatida ifodalanuvchi qilmish, ayb hamda jinoyat subyekt*i kabi elementlari mavjud. Bundan tashqari, har ikki holatda ham jabrlanuvchining huquqqa xilof harakatlari jinoiy qilmishning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishning motivi tajovuzchi tomonidan yaratilgan ijtimoiy munosabatlarga tahdidni bartaraf etish bo'lsa, maqsadi o'zini yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish istagi sanaladi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish bilan bog'liq jinoyatlardan zaruriy mudofaa chegarasidan chiqishni farqlashda, ko'p hollarda qaror qabul qilishda ushbu jinoyatlarning subyektiv tomoni maqsadi va motivi kabi fakultativ belgilariga e'tibor qaratish lozim buladi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishni kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan jinoyatlardan farqlovchi asosiy belgilar motiv va maqsad hisoblanadi [19, 164-b.].



JKning 98-, 106-moddalarida keltirilgan jinoyatlarning motivi g'azab, gina, qasos, maqsadi esa jabrlanuvchini noqonuniy xatti-harakatlar uchun jazolash istagi hisoblanadi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish hamda kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish uchun asos jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek, uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari hisoblansa, mudofaalanuvchi va uning yaqinlariga qarshi, shuningdek, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa huquq hamda manfaatlarga qarshi qaratilishi mumkin bo'lgan tajovuz asos sanaladi. Bundan ko'rish mumkinki, ularning obyektiv tomonida ham sezilarli farqlar mavjud ekan [20, 164-b.].

Shu bilan birga, ko'p hollarda kutilmagan tajovuz mudofaalanuvchida affekt holatini yuzaga keltiradi, uni ruhiy muvozanatdan chiqaradi, natijada u ijtimoiy xavfli qilmishga qo'l urishi mumkin. Shundan kelib chiqib, har qanday zaruriy mudofaa holatidan chetga chiqishda ruhiy belgilar mavjud va har qanday kuchli ruhiy hayajonlanish tajovuzni bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'ladi, deyish mumkin.

Bundan tashqari, zaruriy mudofaa va uning chegarasidan chetga chiqish ham yengillashtiruvchi holatlarga kirib, bunda ham jabrlanuvchining xulq-atvori natijasida jinoyat kelib chiqadi.

Zaruriy mudofaa va uning chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan jinoyatlar qattiq ruhiy hayajonlanish holatida sodir etiladigan jinoyatlarga o'xshab ketadi. Bu jinoyatlarning o'xshash umumiy tomonlari ko'p bo'lib, birinchidan, bu o'xshashliklar qonunga ko'ra odatdagi qasddan qilinadigan tajovuzlarga nisbatan ularning har ikkalasiga yengilroq jazo berilganidadir. Ikkala holatda ham yetkaziladigan zarar jabrlanuvchining huquqqa zid harakati oqibatiga javobidir. Ikkinchidan, ikkala holatda ham jinoyat – tajovuz qaratilgan shaxs tomonidan emas, balki bunday tajovuz guvohlari tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Uchinchidan, ikkala jinoyatda ham jabrlanuvchi harakati bilan unga yetkaziladigan zarar o'rtasida farqlarga bo'linishning yo'qligi va kutilmagan holatda vujudga kelishi xarakterlidir.

Bunday guruhga kiruvchi jinoyatlar orasida muayyan bir farqlar ham bor. Jabrlanuvchining har qanday ijtimoiy xavfli harakati emas, balki uning manfaatlariga muayyan zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakati mudofaa eksessi uchun sabab bo'lishi mumkin.

Jabrlanuvchining jinoiy jazoga sazovor harakatlari yoki ko'pchilik harakatlari kuchli ruhiy hayajonlanish, fiziologik affektni keltirib chiqarishi mumkin. Affekt holatida odam o'ldirgani uchun javobgarlikka tortilgan O.ning ishini bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Ish materiallaridan ko'rinadiki, O.ning eri G. muntazam ravishda mast bo'lib yurgan, o'z maoshiga doim spirtli ichimliklar iste'mol qilib kelgan. Uzoq vaqt davomida o'z xotinini azoblab, oilasining yashashiga hech qanday mablag' qoldirmasdan, kuch ishlatib xotining maoshini ham tortib olgan. Qotillik sodir bo'lgan kuni u bir necha marta O.dan ichkilik uchun pul olgan. O. oxirgi pulini ham berishga majbur bo'lgan. Lekin G. bu bilan qanoatlanmasdan, O.ning yostiq ichiga yashirgan 40 000 so'mini topib oladi. Shundan O. yostig'ini tortib olmoqchi bo'lgan-u,

ammo kuchi yetmaganidan oshxonadan pichoqni olib, G.ning yuragiga urgan va erining o'limiga sabab bo'lgan og'ir shikast yetkazgan. Qattiq ruhiy ta'sirlanish G.ning O.ga va bolalariga doimiy ravishda moddiy hamda ma'naviy jabr yetkazishi oqibatida kelib chiqqan, sud esa jabrlanuvchining xulq-atvorini e'tiborga olib, jazo tayinlagan.

Vaziyatdan yana shuni ko'rishimiz mumkinki, ayblanuvchi va jabrlanuvchi tanish bo'lishgan. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarda jinoyatchi shaxs jabrlanuvchi bilan tanish bo'lganligi to'g'risida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ularning 23 foizi tanish ekanligini, 47 foizi qarindosh, 20 foizi o'rtoq, do'st ekanligi, 10 foizi avval tanish emasligini aytgan.

Ikkinchi guruh jinoyatlarining motivi deb kuchli ruhiy hayajonlanish holatida ijtimoiy xavfli harakatdan (tajovuzdan) qutulishga aytiladi. Bunday ehtiyoj to'la anglanmaydi, unda asosiy o'rinni kuchli ruhiy hayajonlanish egallaydi. Kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatini boshidan kechirayotgan shaxsning maqsadi jabrlanuvchining harakatini to'xtatishdan iboratdir. Mudofaa eksessida sodir etilgan jinoyatlarning motivi va maqsadi boshqachadir. Ularning motivi subyektning harakati va u tomonidan vujudga keltirilgan xavfning oldini olishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, bunday holat shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga tajovuz qilinganda yuz berishi mumkin. Mudofaalanuvchi yuz bergan tajovuzni to'g'ri baholay olmasligi va tajovuzkorni ancha xavfli tasavvur qilishi mumkin. Bunday holda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish qasd hisoblanmaydi. Tajovuz g'azab yoki nafrat affektini qo'zg'atgan va uning ta'sirida mudofaa akti qo'llanib, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqilgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda mazkur zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq jinoyatlardan (O'zbekiston Respublikasi JKning 100- 107-modda) kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi (JKning 98, 106-moddalar) bo'yicha qisqa tahlilimizga xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hech bir belgi alohida olinganda mazkur ikki turdagi jinoyatning aniq farqini ko'rsatishga qodir emas. Faqat obyektiv va subyektiv belgilarning umumiyligigina ularni aniq ajratish uchun asos bo'la oladi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar farqlarining tahlili ularning har biri jinoyat qonunida o'z o'rniga va o'ziga xosliklarga egaligini ko'rsatadi. Bu belgilar esa ularni sud-huquq sohasida qo'llashda bir qancha muhim holatlarga ahamiyat berilishi lozimligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 100-moddasida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirish, 107-moddasida esa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan badanga og'ir shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, JKning 100-, 101-, 107- va 108-moddalari bir qismdan iborat bo'lib, jabrlanuvchi shaxslar agarda ikki yoki undan ortiq shaxs bo'lsa, jazo tayinlashda sud amaliyotida muammolar vujudga keladi. Ushbu muammolarning oldini olish maqsadida JKning 100-, 101-, 107- va 108-moddalari *"Ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilishi"* uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan ikkinchi qism bilan to'ldirilsa, odillik prinsipiga to'g'ri keladi.



Chunki amaldagi normalar JKning 8-moddasi, ya'ni odillik prinsipiga zid bo'lib, unda aybdor shaxs tomonidan zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib bir shaxsni qasddan o'ldirganlik va qasddan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun ham, ikki yoki undan ortiq shaxsni bir vaqtda (yoki turli vaqtlarda bir yil davomida) zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan hayotidan mahrum qilganlik va qasddan badaniga og'ir shikast yetkazganlik, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, bir shaxsni qasddan o'ldirganlik va badanga qasddan shikast yetkazganlik uchun ham, ikki yoki undan ortiq shaxslarni bir vaqtda (yoki turli vaqtlarda bir yil davomida) badaniga qasddan og'ir shikast yetkazganligi uchun ham o'rnatilgan javobgarlik doirasi bir xildir.

REFERENCES

1. Diakonov V.V. Ugolovnoye pravo Rossii (Obshaya chast') [Criminal law of Russia (General part)]. Allpravo.ru. 2003, p. 87.
2. Antonov V.F. Kraynyaya neobkhodimost' v ugolovnom prave [The extreme need for criminal law]. Moscow, Yunity-Dana, 2005, pp. 60–62.
3. Mikhaylov V.I. Vypolneniye neprofessional'nykh funktsiy kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Performance of professional functions as a circumstance excluding criminality of an act]. *Criminal Law*, 2002, p. 79.
4. Khametdinova G.F. Ugolovno-pravovaya kharakteristika krayney neobkhodimosti [Criminal-legal characteristics of extreme necessity]. PhD thesis. Tyumen, 2007, p. 147.
5. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. General part. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2021, 408 p.
6. Milyukov et al. Neobkhodimaya oborona v sisteme multipravovogo instituta samozashchity (doktrina, praktika, tekhnika) [Necessary defense in the system of the multi-legal institution of self-defense (doctrine, practice, technology)]. Moscow, Prospekt Publ., 2021.
7. Orekhov V. Neobkhodimaya oborona i inyye obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya [Necessary defense and other circumstances excluding the criminality of the act]. Moscow, Litres Publ., 2022.
8. Avdeyeva Ye.V. Neobkhodimaya oborona: aktual'nyye voprosy zakonodatel'noy reglamentatsii i pravoprimeneniya [Necessary defense: current issues of legislative regulation and law enforcement]. *Russian Judge*, 2019, no. 1, pp. 16–20.
9. Vorobyeva N.A. Problemy primeneniya zakonodatel'stva o neobkhodimoy oborone [Problems of application of legislation on necessary defense]. *Modern Law*, 2018, no. 5, pp. 88–91.

10. Nikulenko A.V., Smirnov M.A. Neobkhodimaya oborona i prevysheniye yeyo predelov: vozmozhnosti zakonodatel'nogo sovershenstvovaniya [Necessary defense and exceeding its limits: possibilities for legislative improvement]. *Bulletin of St. Petersburg of Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2020, vol. 3 (87), pp. 111–117.
11. Seregina Ye.V. Slozhnosti realizatsii prava grazhdan na neobkhodimuyu oboronu [Difficulties in realizing the right of citizens to necessary defense]. *Socio-Political Sciences*, 2018, no. 4, pp. 151–154.
12. Maksurov A.A. O sovershenstvovanii ponyatiya «neobkhodimaya oborona» kak mezhotraslevogo yuridicheskogo instituta [On improving the concept of “necessary defense” as an intersectoral legal institution]. *Russian Justice*, 2019, no. 8, pp. 22–24.
13. Rumyantsev S.A. Institut neobkhodimoy oborony: nekotoryye aspekty [Institute of Necessary Defense: Some Aspects]. *Bulletin of Science and Practice*, 2019, vol. 5, no. 6, pp. 407–412.
14. Vasilyev A.M. Neobkhodimaya oborona i kriterii uyazvimosti pri kvalifikatsii [Necessary defense and vulnerability criteria for qualification]. *Criminal Law of the Russian Federation: Problems of Law Enforcement and Prospects for Improvement*, 2020, pp. 7–11.
15. Pesteryov D.A. Teoriya i praktika primeneniya neobkhodimoy oborony [Theory and practice of using necessary defense]. *Legal Sciences: Current Issues of Theory and Practice*, 2022, pp. 127–129.
16. Yuridicheskaya entsiklopediya — neobkhodimaya oborona [Legal encyclopedia - Necessary defense]. Vol. 2. Ed. B.N. Topornin. Moscow, Yurist Publ., 2001, p. 613.
17. Oreshkina T.Yu. Fizicheskoye ili psikhicheskoye prinuzhdeniye kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Physical or psychiatric coercion as a circumstance excluding the criminality of an act]. *Criminal Law*, 2000, no. 3, p. 37.
18. Zuyev V.L. Neobkhodimaya oborona, kraynyaya neobkhodimost' i inyye obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya [Necessary defense, extreme necessity and certain circumstances excluding the criminality of the act]. *Questions of Qualifications and Forensic Investigative Practice*, 2001, August, p. 40.
19. Qurbonov R. Zaruriy mudofaa [Necessary defense]. Tashkent, 2009, p. 164.
20. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.4.1./BNSE5938>
UDC: 347.963(045)(575.1)

ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA PROKURORNING O'RNI

Tulaganova Gulchexra Zaxitovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-4741-1144
e-mail: g.tulaganova@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat-protsessual faoliyat, odil sudlovni ta'minlash zarurati, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxs va jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyati, sodir etilgan jinoyat natijasida huquqlari buzilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqlarini tiklash jarayonlari tahlil qilinib, kelgusida bu kabi jinoiy qilmishlar ayblanuvchi tomonidan takroran sodir etilishining oldini olish masalalari ochib berilgan. Shuningdek, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydigan prokuror, tergovchi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni, ishdagi mavjud dalillarni har tomonlama tekshirish, ularni to'ldirish tartibi o'rganilgan. Sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohni so'roq qilish, ashyoviy dalillarni qo'shimcha ravishda ko'zdan kechirish, to'liq tekshirilmagan hamda yangitdan yuzaga kelgan masalalarni aniqlash holatlari ochib berilgan. Maqolada ayrim xorijiy davlatlar tajribasi ham o'rganilgan. Bundan tashqari, jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda amaliyotini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: odil sudlov, jinoyat, jinoyat protsessi ishtirokchilari, tortishuv prinsipi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, prokuror, sud muhokamasi, himoyachi, moddiy zarar, qonun, kassatsiya, apellyatsiya, taftish, dastlabki tergov, adolat, xolisona ayblov xulosasi, davlat, adolatli hukm, majburlov choralari, tergov harakatlari.

РОЛЬ ПРОКУРОРА ПРИ ОТПРАВЛЕНИИ ПРАВОСУДИЯ

Тулаганова Гулчехра Захитовна,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы, связанные с уголовно-процессуальной деятельностью, необходимостью обеспечения правосудия,

защиты прав и свобод граждан, интересов личности и общества от преступных посягательств. Анализируются процессы доследственной проверки, следственной деятельности по уголовным делам, осуществляемой государственными органами, должностными лицами, ответственными за производство по уголовным делам, восстановления прав физического или юридического лица, права которого были нарушены в результате совершённого преступления, раскрываются вопросы предотвращения повторного совершения обвиняемым в дальнейшем подобных преступных деяний. Кроме того, были изучены ошибки, допущенные прокурором и следователем, поддерживающим государственное обвинение, изучен порядок всестороннего исследования имеющихся по делу доказательств и их заполнения. Раскрыты вопросы допроса подсудимого, потерпевшего, свидетеля, дополнительного осмотра вещественных доказательств, выявления не до конца изученных и вновь возникших обстоятельств. Освещаются полномочия прокурора на предварительном расследовании, его участие в судебном процессе, поддержке обвинения, порядок отказа от обвинения и его предъявления, опираясь на принципы уголовного процесса, также поясняется, что в теории уголовного процесса каждый субъект уголовно-процессуальной деятельности имеет определённые функции. В статье также изучен опыт некоторых зарубежных стран. Кроме того, даны предложения и рекомендации по совершенствованию уголовно-процессуального законодательства и практики.

Ключевые слова: правосудие, преступление, участники уголовного процесса, принцип состязательности, права и свободы граждан, прокурор, суд, защитник, материальный ущерб, закон, кассация, апелляция, обыск, предварительное следствие, справедливость, беспристрастное обвинение, государство, справедливый приговор, меры принуждения, следственные действия.

THE ROLE OF THE PROSECUTOR IN THE ADMINISTRATION OF JUSTICE

Tulaganova Gulchekhra Zahitovna,

Tashkent State University of Law,
Professor of the Department of Criminal Procedure Law,
Doctor of Law

Abstract. This article highlights issues related to criminal procedural activities, the need to ensure justice, protect the rights and freedoms of citizens, and protect the interests of the individual and society from criminal encroachments. A pre-investigation check conducted by officials of state bodies responsible for conducting a criminal case analyzes the issues of restoring the rights of an individual or legal entity whose rights were violated as a result of a crime committed, and identifies issues of preventing the accused from re-committing similar criminal acts in the future. The procedure for filling them out is also being studied, as well as issues of comprehensive verification of the evidence available in the case of deficiencies committed by the prosecutor and the



investigator supporting the state prosecution. The circumstances of the interrogation of the defendant, the victim, and the witness, the additional examination of physical evidence, and the and the identification of issues that have not been fully studied and have arisen again have been revealed. The author analyzes the powers of the prosecutor in the preliminary investigation, his participation in the trial process, support for the prosecution, the procedure for rejecting the charges, and the issues of their presentation. In the theory of criminal justice, their reliance on the principles of criminal justice is analyzed in the sense that each subject of criminal procedural activity has certain functions. The article also examines the experiences of some foreign countries. In addition, suggestions and recommendations for improving criminal procedure legislation and practice are given.

Keywords: *justice, crime, participants in criminal proceedings, principle of argument, the rights and freedoms of citizens, prosecutor, trial, defender, material damage, law, cassation, appeal, audit, preliminary investigation, justice, objectivity, indictment, state, fair verdict, coercion measures, investigative actions.*

Kirish

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar hamda ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish (14-maqсад), davlat organlari, mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish (15-maqсад) ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirishda esa prokuratura organlarining o'rni muhim hisoblanadi.

Jinoyat protsessining maqsadi odil sudlovni ta'minlash bo'lib [1], unga:

1) jinoyatlarni tez va to'la ochish, ya'ni jinoyat sodir etilganligi faktini va uni kim sodir etganini aniqlash;

2) aybdorlarni fosh etish;

3) qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash kabi vazifalarni bajarish orqali erishish mumkin. Odil sudlov ishga oid haqiqiy holatni aniqlab, tomonlar o'rtasidagi kelishmovchilikni qonun va adolatga tayangan holda xolisona hal qilib berish hisoblanadi. Odil sudlovni amalga oshirish deganda jinoyat ishlarining adolatli hal qilinishiga, qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlari qabul qilinishiga, ijtimoiy adolat o'rnatilishiga xizmat qiladigan hukm chiqarilishiga, yanada aniqroq aytganda, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi, hukm qilinmasligiga erishish [2] tushuniladi.

Sudlar tomonidan ko'rilayotgan jinoyat ishlarining soni yildan yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada 2020-yilda 30 282 ta, 2021-yilda 47 667 ta, 2022-yilda 58 697 ta, jami 136 636 ta, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya tartibida qayd etilgan davrda jami 21 968 ta, kassatsiya tartibida (qonunchilikka

kiritilgan o'zgartishlarga qadar) jami 3 735 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining sudlov hay'ati tomonidan kassatsiya tartibida jami 13 445 ta jinoyat ishi prokurorlar ishtirokida ko'rilgan [3].

Material va metodlar

Tadqiqotda odil sudlovni amalga oshirishda prokurorning o'rni masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat protsessida odil sudlov sud muhokamasi jarayonida amalga oshiriladi, ammo amaldagi JPKda sudgacha bo'lgan ish yurituviga ham katta o'rin berilgan. Shuningdek, jinoyat-protsessual faoliyatning, boshqacharoq aytganda, odil sudlovni ta'minlash zarurati davlat zimmasidagi fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish vazifasi bilan bog'liq.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyati, sodir etilgan jinoyat natijasida huquqlari buzilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan bo'lib, kelgusida bu kabi jinoiy qilmishlar ayblanuvchi tomonidan takror sodir etilishining oldini olishi, shaxsni axloqan tuzatish yoki tarbiyalashga xizmat qilishi va ko'maklashishi zarur [4].

Jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirish zarurati jinoyat sodir etilishi va ish yurituvi boshlanishi bilan bir vaqtda yuzaga kelmasligi mumkin. Chunki ayrim hollarda huquqlari buzilgan deb hisoblanayotgan shaxs sodir etilgan qilmish natijasida huquqlari buzilmaganini e'tirof etishi yoki huquqlari buzilgan bo'lsa-da, jinoiy qilmish sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilishini xohlamasligi, uni kechirishi, shuningdek, da'vo bo'lmagan vaziyatlarda shaxsning sodir etgan qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonligi bois uni javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi tufayli faoliyatni davom ettirishga zarurat bo'lmasligi mumkin. Shu bois bu kabi holatlarda ish yurituvini tamomlash asoslari, jinoyat haqidagi ariza va xabarlar, jinoyat ishlarini tezkorlik bilan hal etish tartibi jinoyat-protsessual qonunchilikda mukammal belgilanishi maqsadga muvofiq. Huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o'zgarishlar jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini o'zgartirishga olib kelishi, bunda davlat shaxsiy manfaatlarga qarshi jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish masalasini hal etishdagi ustun mavqeyidan voz kechishi kerak. Shuningdek, davlat jinoyat sodir etgan shaxsga va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash masalasida kelishish hamda jabrlanuvchining xohish-irodasidan kelib chiqqan holda ish qo'zg'atish yoki jinoyat protsessining har qanday bosqichida jinoiy ta'qibni tugatish imkonini yaratishi shart [1].

Jinoyat protsessi nazariyasida jinoyat-protsessual faoliyatning har qaysi subyekti muayyan funksiyalarga ega, ya'ni bu funksiyalarning subyektlariga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ham kiradi. Ular jinoyat protsessi subyektlarining asosini tashkil qiladi, uning tuzilishi va tamoyillarini belgilab beradi, deb hisoblash mumkin.



Amaldagi kodeksga ko'ra, sudning ruxsati talab etiladigan tergov harakatlarini o'tkazish uchun tergovchi dastlab prokurorga murojaat qiladi, so'ngra prokuror sudga iltimosnoma kiritadi. Bu esa tergovchilarning jinoyatni ochish jarayonida prokurorni kutib qolishi yoki uning subyektiv qarashiga tobe bo'lib, ortiqcha ovoragarchiliklariga sabab bo'lishi mumkin. Yangi kutilayotgan kodeksda sudning ruxsati talab etiladigan ayrim tergov harakatlari va majburlov choralari amalga oshirish bo'yicha sanksiya olish uchun tergovchi bevosita sudga iltimosnoma kiritishi tartibi belgilanmoqda.

Bugungi kunda ko'rinib turgan haqiqat – odil sudlovni tortishuv tamoyili asosida amalga oshirishda jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi faqat o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishi kerak bo'ladi: prokuror – ayblovni, himoyachi himoyani amalga oshiradi, sud esa ishni mohiyatiga ko'ra mazmunan ko'rib hal qiladi. Davlat ayblovini, ya'ni muayyan shaxs nomidan uning manfaatlarini ko'zlab, sudga prokuror quvvatlaydi. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Prokuratura esa ushbu siyosatni amalga oshirishning juda muhim bir qismidir. Davlat ayblovchisi sifatida sud muhokamasida ishtirok etayotgan prokuror o'ziga qarshi teng kuchli himoya tarafiga ega bo'lgan taraf protsessual holatini egallaydi. U ish bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilganidan so'ng e'lon qilingan ayblovning asosli va to'g'riligi haqida to'liq ishonch hosil qilsagina, ishni sudga yuborishi mumkin.

Sud muhokamasida prokuror ayblovchi sifatida qatnashadi, sud va jamoatchilik oldida sudlanuvchining aybini fosh qiladi, uni isbotlaydi. "Prokuror har doim va barcha sharoitlarda ham qonuniylikni himoya qiladi" [5]. Shuning uchun sud muhokamasida prokuror davlat ayblovini qonun asosida hamda ish bo'yicha aniqlangan faktlarga muvofiq quvvatlaydi. U hech qachon haqiqatga qarshi chiqishi mumkin emas. Demak, prokuror ayblovni uning qonuniyligi va asosligi nuqtayi nazaridan quvvatlaydi. Ayblovni quvvatlayotgan prokurordan o'z ayblov funksiyasini amalga oshirishda qat'iylik, faollik, faktlarga nisbatan aniqlik talab qilinadi.

Prokuraturaning tabiati va vazifalariga qanday bo'lmasin, baribir ayblovni quvvatlash kerak, degan talab aslo mos kelmaydi. "Ayblovchi sifatida ishtirok etib, protsessda taraf bo'la turib, prokuror sud muhokamasida xoh himoyachi, xoh ayblovchiga zarar yetkazadigan qonun buzilishi hollarini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Prokuror jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida o'z vaqtida barcha qonun buzilish hollarini bartaraf etish uchun qonunda ko'zda tutilgan choralarni ko'rishi mumkin" [6]. Shunga muvofiq, sud muhokamasida har qanday qonun buzilish ro'y bergan taqdirda, prokuror ushbu holatlarni bartaraf etishni so'rab sudga ariza bilan murojaat qiladi.

Davlat ayblovchisi sifatida prokuror yoki prokuror yordamchisi ishtirok etadi. Ushbu ish bo'yicha dastlabki tergov ustidan nazorat olib borgan prokuror ham, boshqa prokuror ham davlat ayblovchisi sifatida qatnashishi mumkin. U sud oldida davlat ayblovini quvvatlay turib, sud tergovida dalillarni tekshirishda qatnashadi, sudga muhokamada yuzaga kelgan masalalar bo'yicha o'z xulosasini beradi, muzokaralarda sudlanuvchining aybdorligi haqidagi masala yuzasidan, jinoyat qonunini qo'llash bo'yicha, sudlanuvchiga jazo tayinlash bo'yicha, fuqaroviy da'vo yuzasidan, hukm

qonuniy kuchga kirguniga qadar sudlanuvchiga ehtiyot chorasini qo'llashga oid xulosalarini beradi.

Har bitta prokuror o'z faoliyatining turli sohalarida funksiyalarini amalga oshirishda yuqori turuvchi prokurorga bo'ysunadi hamda uning ko'rsatmalarini bajarishi shart. Lekin u sud muhokamasi jarayonida ayblovni quvvatlay turib, sudga taqdim qilayotgan o'z xulosa va fikrlarini bayon qilishda mustaqildir. Jinoyat ishi yuzasidan sud muhokamasi o'tkazilayotgan vaqtda yuqori turuvchi prokuror sudda ishtirok etayotgan prokurordan qandaydir yo'l tutishini, sudlanuvchining jazoga hukm qilinishini, unga qandaydir bir jazo chorasi qo'llanishi lozimligini talab qila olmaydi. Bularning barchasini sudda ishtirok etayotgan prokurorning o'zi sud muhokamasidagi holatlarga qarab, o'z ichki ishonchiga asoslanib hal qiladi. Agar sud muhokamasi jarayonida prokuror sud tergovining ma'lumotlari sudlanuvchiga e'lon qilingan ayblovni tasdiqlamaydi, degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va sudga voz kechish sabablarini bayon qilishi kerak (O'zR JPK 409-moddasi). Prokurorning ayblovdan voz kechishi sudni ish muhokamasini davom ettirish, sudlanuvchining aybdorligi haqidagi masalani umumiy asoslarga ko'ra hal qilish, sud ayblovni isbotlangan deb hisoblasa, unga jazo chorasini qo'llash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Prokuror jinoyat tufayli jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararni undirish haqida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish huquqiga ega. Bunda jabrlanuvchi tomonidan da'vo bildirilmagan bo'lishi kerak. Davlat yoki jamiyat manfaatlari, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish talab qilingan hollarda, prokuror jabrlanuvchi tomonidan bildirilgan fuqaroviy da'voni quvvatlashi mumkin. A.F. Konining "Prokuror, bu – gapiruvchi ommaviy sudya" [7], degan mashhur iborasi, bizningcha, sud muhokamasida prokurorning protsessual holati va protsessual funksiyasini aniqlab berishga taalluqli emas, balki qonuniy usullar yordamida amalga oshirilishi, faktlarga tayanishi, odil sudlov maqsadlariga xizmat qilishi, haqiqatdan chekinmasligi lozim bo'lgan ayblovni quvvatlash usul-vazifalarining tavsifiga tegishlidir.

Sudda davlat ayblovining quvvatlanishi prokurorning qonuniylik ustidan nazoratni amalga oshiruvchi asosiy funksiyasini bajarish shakllaridan biri ekanligi haqidagi qoida uning o'z ayblov faoliyatini to'g'ri tashkil qilish hamda amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Birinchidan, prokuror davlat ayblovchisi sifatida sudda ayblovni qonunni buzuvchiga qarshi quvvatlaydi. Chunki jinoyat qonunning qat'iy buzilishi bo'lib, prokuror uni sodir qilgan shaxsning aybini fosh etadi, uning jazoga hukm qilinishiga urinadi. Shu bilan birga, prokuror sudda ayblovni faqat qonun asosida quvvatlaydi, qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. U davlat ayblovchisi sifatida ishni to'g'ri, qonuniy hal etilishiga harakat qiladi hamda sud muhokamasida yuzaga kelgan barcha masalalar bo'yicha qonuniylik nuqtayi nazaridan o'z xulosalarini beradi. Shuningdek, sudda ayblovchi qonun buzilishi hollariga befarq qaray olmaydi. Ushbu qonun buzilishi hollari kim tomonidan sodir etilgani, ular tufayli kim zarar ko'rganligiga qaramay, ularni bartaraf etish uchun qonunda ko'zda tutilgan choralarni ko'radi. Sud muhokamasida yo'l qo'yilgan qonun buzilishi hollarini bartaraf etish uchun prokuror bu kamchiliklar yuzasidan sudga murojaat qiladi. Agar kamchiliklar bartaraf etilmagan bo'lsa, sudning qaror va harakatlari ustidan protestlar keltiradi.



Shu bilan birga, prokuror davlat ayblovchisi sifatida qonuniylik ustidan, ya'ni muhokamada ishtirok etayotgan muayyan sudning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi, deb tushunish yaramaydi. U sud muhokamasida sudlanuvchini ayblash, jinoyat sodir qilgan shaxsni sud va jamoatchilik oldida fosh qilish, unga adolatli jazo qo'llanishini ta'minlash maqsadida ishtirok etadi. Biroq prokuror qonuniylik ustidan nazorat funksiyasiga mos holda, sud muhokamasida har qanday qonun buzilishi hollari oldidan o'tib keta olmaydi.

Yuridik adabiyotlarda uzoq muddat mobaynida [8] shunday fikrlar bo'lganki, ularga muvofiq ayblovchi sifatida ishtirok etayotgan prokuror protsessda nafaqat taraf sifatida qatnashadi, balki qonuniylikni muhofaza qilish organi ham hisoblanadi. Prokuror protsessual holatining ikkilamchiligi uning nazoratni ikki xil shaklda amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Protsessual holatning ikkilamchiligi haqida fikr bildirgan olimlar [9] prokurorni davlat ayblovchisi sifatida sudning tepasiga qo'yishga harakat qilganlar. Ular o'z xulosalarini shu bilan asoslaganlarki, ya'ni prokuror protsessning barcha bosqichlarida, jumladan, sud majlisida ham qonuniylik ustidan nazorat funksiyasini saqlab qoladi. Olimlarning boshqa bir guruhi [6], aksincha, davlat ayblovchisining funksiyasini asos sifatida qabul qilgan hamda uni nazoratga qarama-qarshi qo'ygan. Bunday nuqtayi nazar tarafdorlari, o'sha paytda amalda bo'lgan jinoyat-protsessual qonunchiligini hisobga olgandi. Unga muvofiq prokuror oliy nazoratni amalga oshira turib, har qanday ishga, jumladan, umumiy manfaatlarni himoya qilish, ayblovni quvvatlash uchun xususiy ayblovga doir ishlarga ham kirishi mumkin edi. Prokuror ishga kirishishi bilan ish taraflarning yarashuvi tufayli tugatilmasdi.

Prokurorning sud muhokamasida ishtirok etishi borasida boshqa nuqtayi nazarni M.S. Strogovich bildirgan: "U, prokuror, protsessda faqat ayblovchi sifatida qatnashadi, sudda davlat ayblovinu quvvatlash esa qonuniylik ustidan nazorat qiluvchi funksiyadan boshqa narsa emas".

Ayrim olimlar sud majlisida prokuror tomonidan ayblov funksiyasini rivojlantirish haqidagi fikrni ilgari surib, prokurorning faoliyatida himoya funksiyasi ham bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaganlar. Fikr mohiyati shundan iboratki, bunda aybsiz shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmaydi. Aslida prokuror yoki davlat ayblovchisi protsessda ham taraf sifatida qatnashadi, ham qonuniylikni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi, bir vaqtning o'zida aybi bo'lmagan hech bir shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ilgari prokurorlarning sudda ishtirok etish soni muhim bo'lgan, hozir esa davlat ayblovinu quvvatlashga nisbatan qo'yiladigan talab o'zgargan. Bugungi kunda prokurorlar sudda ishtirok etishining soni emas, balki sifati hamda samarasi muhimdir. Bunda dastlab prokurorlarning faoliyati odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirishga, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qay darajada ta'sir ko'rsatishi ko'zda tutiladi. Qoidaga ko'ra, sud ishlarni har tomonlama ko'rib chiqib, qonuniy va asoslantirilgan hukm chiqaradi. Bu yerda ishni to'g'ri hal qilishga prokuror nazorati qay darajada samarali ta'sir ko'rsatishi ahamiyatli jihatdir.

Prokurorlarning faoliyatini baholashda davlat ayblovchisi ishtirok etgan ishlar bo'yicha bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hukmlarning mavjud yoki mavjud emasligiga e'tibor qaratamiz. Agar bunday hukmlar bo'lmasa, davlat ayblovchilari hukmning qonuniyligini ta'minlab berib, o'z vazifasini mohirlik bilan bajargan, deb hisoblaymiz. Biroq doim ham shunday bo'lavermaydi. Sababi, sud ayrim masalalar bo'yicha prokuror bilan kelishmaydi va haq bo'ladi. Davlat ayblovchisining fikri birdaniga to'liq hajmda hisobga olinmaydi. Kassatsiya yoki apellyatsiya, taftish instansiyalari ishni o'rganish jarayonida prokurorning takliflari va sudning xulosalari taqqoslanadi. Biroq ular ko'pincha bir-biriga mos tushmaydi. Bu hol davlat ayblovining sifatini ko'tarish ustida to'xtovsiz ishlashga majbur qiladi. Lekin baholashda faqatgina prokuror va sudning fikri bir-biriga mos tushishidan ham kelib chiqmaslik kerak. Prokurorning sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilishda, boshqa dalillarni tadqiq qilishdagi faolligi, uning xulosa va iltimosnomalarining asoslantirilganligi juda muhimdir. Jinoyat ishlarini o'rgana turib, bunga to'xtovsiz e'tibor qaratamiz, prokuror jinoyatning sodir bo'lish holatlarini aniqlashda, sudlanuvchini fosh qilishda, jinoyat sodir qilishga yordam bergan sabab va sharoitlarni aniqlashda qay darajada ishtirok etganini bilishga urinamiz.

Ba'zan prokuror ishtirokida ishni ko'rishda sud xatoga yo'l qo'yadi. Bunday paytda ushbu xato ma'lum bo'lganidan so'ng hukm yuzasidan protest keltirilishi kerak. "Prokuror har qanday noqonuniy hukm yuzasidan protest keltirishga majburdir. Noqonuniy hukmni ijro etishga yo'l qo'ymaslik muhimdir" [10].

So'nggi yillarda bizda asossiz protestlarning soni sezilarli darajada kamaydi. "Sayyor sud majlislarida prokurorlarning ishtirok etishi ayblovni quvvatlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu faoliyat muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, ishni ko'rish joyi to'g'ri tanlanishi lozim. Shahar, tuman prokurorlari, ularning yordamchilarining sud, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot, muassasa rahbarlari bilan bo'lgan aloqalarning barchasi sayyor sud majlislarining muvaffaqiyatini belgilab beradi, tarbiyaviy jihatdan samarali bo'ladi" [10].

Hozirgi kunda tortishuv protsessida ishda ishtirok etayotgan prokuror oldidagi vazifalar murakkablashib, ko'payib bormoqda. "Jinoyat sodir qilgan shaxslarni fosh qilish bo'yicha ishning yakuni ko'p darajada davlat ayblovchisining kasbiy tayyorgarligiga, dalillarni taqdim qilish va tekshirishdagi faolligiga, ishni muhokama qilish jarayonida yuzaga kelgan murakkab holatlarni tezda baholash va undan to'g'ri chiqib keta olish xususiyatiga, tortishuvni amalga oshirish qobiliyati hamda nutqining ravonligiga bog'liq bo'ladi" [11, 12]. Haqiqatan, prokuraturada malakali, savodli, yetarli darajada tajribaga ega bo'lgan xodimlar mavjud. Biroq ularning barchasi ham sudda ayblovni yuqori sifat darajasida quvvatlay olmaydi.

Umuman olganda, davlat nomidan sudda ayblovni quvvatlash prokuraturaning universal funksiyasi hisoblanadi. Ayrim xorijiy davlatlar tajribasini kuzatsak, Moldova Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi qonuniga asosan ham prokurorning sud bosqichidagi protsessual holati uning dastlabki tergovdagi protsessual holatidan tubdan farq qiladi. Prokuror bunda hokimiyat-farmoyish vakolatini yo'qotadi va boshqa protsessual sifatda ishtirok etadi, ya'ni sud protsessida aynan davlat



ayblovchisi sifatida taraf bo'lib qatnashadi. Prokuror ushbu bosqichda protsessning boshqa ishtirokchilari bilan bir qatorda teng huquq va majburiyatlarga ega (Moldova Prokuraturasi to'g'risidagi qonunining 29-moddasi 2-band) [13]. Faqatgina qator davlatlarda (Germaniya, Fransiya) prokuror protsessda taraf hisoblanmaydi [14]. Masalan, Fransiya JPKning 32-moddasiga asosan, prokurorga "taraf" degan tushuncha tatbiq etilmaydi. Shunday ekan, sud prokurorga taraf sifatida qaramaydi. Bundan tashqari, prokurorga nisbatan raddiya berish ham mumkin emas, hatto prokuror o'zida bir yoqlama ayblov pozitsiyasi turganiga asos bo'lsa-da, ayblanuvchining himoyachisi tomonidan ham uni rad etib bo'lmaydi. Gretsiyada ham prokuror taraf sifatida qatnashmaydi. Prokuror obyektiv haqiqatni aniqlash va qonunlarni to'g'ri qo'llashni ta'minlovchi hisoblanadi.

Endi masalaning ikkinchi tomoni hisoblangan davlat nomidan ayblovni quvvatlayotgan ba'zi davlatlar qonunchiligiga nazar tashlasak, AQShda davlat ayblovchisining funksiyasi attorney (huquqshunos) xizmatiga yuklatilgan. Attorney – AQShda har qanday ishonchli vakil va yuqori sudning vakili hisoblanadi. U qonun vakili sifatida ish olib borib, sudlov faoliyatiga ko'maklashadi. AQShda prokuror faqat jinoyat protsessida davlat ayblovchisi (attorney) – hukumatning davlat vakili sifatida ishtirok etadi. Uning vazifasi tortishuv tamoyiliga ko'ra, obyektiv haqiqatni aniqlash emas, ayblovni qo'llashda yutuqqa erishish hisoblanadi [14, 127-b.].

O'z vakolatiga ko'ra, attorney xizmati politsiya tomonidan to'plangan dalillardan sud muhokamasida foydalanish mumkinmi yoki yo'qligini tahlil qilib, tegishli tarzda ularga baho beradi. Dalillarni to'plashda zarracha noqonuniylikka yo'l qo'yilgani aniqlansa, ular qonunga zid uslublar bilan yig'ilgan bo'lsa, attorney bunday dalillarni haqiqiy emas deb topishi mumkin. Ushbu masalada attorney xizmati vakillari politsiya faoliyati ustidan to'liq nazoratni amalga oshiradi.

Avstraliya davlatida ham sudlarda jinoyat ishlari bo'yicha ayblovni attorney xizmati vakillari amalga oshiradi va "qirolik ayblovchilari" deb nomlanadi. Ular juda keng vakolatlarga ega bo'lib, sudda har qanday jinoyat ishi bo'yicha ayblovni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishlari mumkin yoki ish bo'yicha to'plangan dalillar yetarli emas deb hisoblasalar, jinoyat ishini harakatdan tugatish vakolatiga ham egalar [6].

Aytish joizki, xorijiy davlatlarda prokurorlarning vakolatlari turlicha hisoblanadi. Bizda esa so'nggi yillarda prokuratura organlariga ko'plab yosh xodimlar kelgan. Ular qonunchilikdagi yangi o'zgarishlarni tez o'zlashtirib oladilar, biroq amaliy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun prokuraturaning yosh xodimlarini doimiy malakasini oshirish, ularni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qitishning turli usullaridan foydalanish lozim. Har oyda prokuratura organlarida o'quv-uslubiy seminarlar o'tkazib turilishi kerak. Seminarlarda muayyan jinoyat ishlari muhokama qilinishi, videomateriallar ko'rilishi, shuningdek, ayblovni quvvatlashdagi xatolar muhokama qilinishi kerak. Tuman, shahar prokuror yordamchilari har yili sud tomonidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda prokurorlarning ishtirokini ta'minlab beradigan bo'limda stajirovkadan o'tishlari lozim. Normativ material, sud amaliyotini o'rganishdan iborat individual topshiriqlar berishni o'z ichiga olgan

o'qitish shakli qo'llansa ham, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bularning barchasi yosh mutaxassislarda ko'nikmalar shakllanishiga katta yordam beradi.

Hozirgi kunda ko'pgina shahar va tuman prokurorlari yuqori yuklamalar tartibida ishlaydi. Xodimlar sudda ko'rib chiqiladigan ishlarning soni ko'pligi tufayli har bitta sud protsessiga sifatli tayyorlanishga ulgurmasligi mumkin. Sudda davlat ayblovini quvvatlayotgan prokuror yordamchilari kun davomida bir protsessdan ikkinchisiga, keyin boshqasiga o'tishga majbur bo'ladilar. Oxir-oqibatda bu ayblovni quvvatlash sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab soha xodimlari uchun qo'shimcha shtatlarning ajratilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Davlat ayblovini quvvatlash muammolarini o'rganishdan kelib chiqadigan xulosa shuki, malakali, ilgari tergov sohasida faoliyat ko'rsatgan prokuratura xodimlarida ustunlik kuchli. Alohida tergov harakatlarini amalga oshirishning kriminalistik taktikasi, turli jinoyatlarni tergov qilish usullaridan xabardor bo'lgan, kriminalistik usuldan foydalana oladigan davlat ayblovchilari o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradilar, sudni dastlabki tergov organlarining xulosalari to'g'ri ekanligiga ishonтира oladilar. Biroq shahar, tuman prokuraturasidagi ayrim davlat ayblovchilari notiqlik qobiliyatiga ega emasligidan sud amaliyotidan a'lo darajada xabardor bo'lish, bevosita isbotlash tajribasi, turli taktik usullarni qo'llash borasida, xullas, dastlabki tergov bosqichi o'z ichiga oladigan barcha jarayonlarda ularning o'rnini bosa olmaydi.

Davlat ayblovini quvvatlash sifatini oshirish ushbu institut bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga ham bog'liq. Bizda ayblov xulosasini tasdiqlaydigan va uni sudda quvvatlaydigan prokuror turli shaxslar hisoblanadi. Sudda davlat ayblovini quvvatlash topshirilgan davlat ayblovchisi, qoidaga ko'ra, ish materiallarini tergov tugab, ayblov xulosasi tasdiqlanganidan so'ng oladi. Ayblovchi isbotlash bazasini shakllantirishda ishtirok etmagan hamda uni tergov vaqtida yoki u tugallanganidan so'ng tahlil qilmagan. U jabrlanuvchi va guvohlar bilan ilgari suhbatlashmagan hamda ularning ko'rsatmalarini tegishlilik, maqbullik, ishonchlilik, yetarlilik nuqtayi nazaridan bevosita baholashning protsessual imkoniga ega bo'lmagan. Ba'zan bir qarashda ishonchli bo'lgan dalillar sudda o'z tasdig'ini topmaydi, ayblovning hajmi o'zgaradi hamda davlat ayblovchisi to'liq yoki qisman ayblovdan voz kechishga majbur bo'ladi.

Nazarimizda, davlat ayblovini quvvatlash institutining islohoti sudda bir necha yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi kerak. Davlat ayblovchisiga sudda dalillarni tekshirishda faol ishtirok etish, dastlabki tergov o'tkazgan shaxslar bilan birgalikda harakat qilish taklif qilinadi. Agar prokuror davlat ayblovchisining fikrlari bilan kelishmasa, davlat ayblovchisini almashtirish yoxud ayblov xulosasini tasdiqlagan prokuror tomonidan ayblovni quvvatlash masalasini hal qilish kerak bo'ladi. Ushbu qoidalar jinoiy ta'qibni hamda tergov ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarni muvofiqlashtirishga qisman yordam beradi.

Fikrimizcha, tergov ustidan nazorat olib boruvchi prokuror bilan birgalikda, davlat ayblovchisiga ham ayblov xulosasini tasdiqlash vaqtida tergov materiallarini tekshirish hamda uni tasdiqlashga rozilik berish huquqi qonun bilan berilgan taqdirda, davlat ayblovchisi davlat ayblovini yanada samaraliroq quvvatlagan bo'lardi. Ayblov xulosasini tasdiqlash vaqtida davlat ayblovchisini tayinlash, nazorat qiluvchi prokuror



bilan birga unga ish materiallarini baholash imkonini berish sudga yuborilayotgan, sifatsiz tergov qilingan ishlarning soni kamayishiga asos bo'ladi. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi sud muhokamasi boshlanguniga qadar davlat ayblovchisiga ayblanuvchining jinoyat sodir qilganligini fosh qiluvchi jabrlanuvchi va guvohlar bilan suhbat olib borish huquqini bermagan. Himoyachi esa shaxslarni ularning roziligi bilan so'roq qilishga ish sudga yuborilganidan keyin ham haqli bo'ladi. N. Kirillova ta'kidlab o'tganidek, "... ayblov xulosasini tasdiqlash vaqtida va u tasdiqlab bo'linganidan so'ng tergov materiallarini tekshirish va ularni baholash huquqining davlat ayblovchisiga berilishi unga isbotlanishi lozim bo'lgan materialni yanada yaqqolroq tasavvur qilish, tergov xatolarini o'z vaqtida bartaraf etish hamda asossiz ayblovni quvvatlamaslik imkonini bergan bo'lardi" [15]. Shuningdek, tegishli shahar, tuman prokuroriga og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlarini tergov qilishda dastlabki tergov bosqichlaridayoq, masalan, ayb e'lon qilinganidan so'ng davlat ayblovchisini tayinlash haqida qaror qabul qilish huquqi berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bo'lg'usi davlat ayblovchisi nazorat olib boruvchi prokuror bilan bir qatorda muhim tergov harakatlarini o'tkazishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishi kerak. Maqsad – davlat ayblovchisining o'zi dalillarni to'plash va tekshirishni kuzatishi, ishning yo'nalishini baholash imkoniga ega bo'lishiga erishishdir. Ushbu vakolatni, bir tomondan, tergov jarayonida jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlariga rioya qilinishining qo'shimcha kafolati deb hisoblash mumkin. Boshqa tomondan, jinoiy ta'qibni amalga oshirishda tergov tayinlangan davlat ayblovchisidan qo'shimcha yordam oladi hamda olinayotgan dalillarning sifati uchun javobgar bo'ladi. Ishga bunday yondashish tergovchi va davlat ayblovchisining jinoiy ta'qib oqibatlariga bo'yicha ish yuzasidan sudda isbotlash imkoniyatini birgalikda baholashga sharoit yaratadi. Davlat ayblovchisi tergovda ishtirok etishga vaqtini sarflab, sudlov bosqichida ish materiallarini o'rganib chiqishda vaqtini tejaydi. Sababi, ish haqida muayyan taassurotga ega bo'ladi.

Tergov organlari va ayblovni quvvatlash o'rtasida protsessual faoliyatni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarishda muammoni hal qilishning boshqa usuli tergov ustidan nazorat funksiyasini hamda sudda davlat ayblovini quvvatlashni bitta shaxsga berish hisoblanadi. Bunda umumiy qoidaga ko'ra, jinoyat ishini tergov qilish ustidan nazorat olib boruvchi prokuror ish bo'yicha davlat ayblovini quvvatlashi kerak bo'ladi. Ushbu holat tergov ustidan protsessual rahbarlikni amalga oshirishda uning javobgarlik darajasini oshiradi. Xullas, ushbu usul bo'yicha davlat ayblovini quvvatlash institutini takomillashtirish prokuratura tizimida ma'lum bir tashkiliy va tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirilishini talab qiladi. Biroq sudda davlat ayblovini samarali quvvatlash har doim ham prokurorning kasbiy, shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lavermaydi. Prokuror ishni to'liq o'rganib chiqib, to'g'ri yo'lni tanlab olganidan so'ng ham sud tergov jarayonida shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinki, u ayblovni quvvatlashning oqibatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bunda ma'lumotlar yetishmay qoladi, protsess ishtirokchilari o'rtasida nizo vujudga keladi, yangi ma'lumotlar paydo bo'ladi, borlari o'zgarib qoladi. Ushbu vaziyatda mavjud ma'lumotlarni tezda tahlil qilishning o'zi yetarli bo'lmaydi, balki uni yangi paydo bo'lgan ma'lumot bilan solishtirish, to'g'ri yo'lni tanlab olish kerak. Sudlanuvchi,

jabrlanuvchi, guvohning dastlabki tergovda bergan ko'rsatmalari sudda o'zgarib qolishi – ko'pincha amalda uchraydigan holat. Sudda bunday ko'rsatmalarni baholash qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yolg'on ko'rsatmalar berishning sabablari turlicha – sudlanuvchilarda qilmishda o'zining rolini kamaytirish yoki jinoyatning alohida epizodlaridagi ishtirokini yo'qqa chiqarish, ishtirokchilar tomonidan ta'sir ko'rsatilishi va hokazolar. Dastlabki tergov materiallarida ham, xususan, dalillarni olish va qayd qilishda kamchiliklar bo'ladi. Himoyachi sudning e'tiborini ularga jalb qilib, shu bilan ayblovchining xulosalarini shubha ostiga qo'yadi. Prokurorlar bunday vaziyatlarning xavfini tushunib, ish bo'yicha optimal qaror topishga harakat qiladilar: qilmishni yanada yengilroq moddaga qayta tavsiflash, ayblovdan alohida epizodlarni olib tashlash va hokazo. "Tergov yuzaki o'tkazilgan taqdirda, ayrim dalillar lozim darajada tekshirilmaydi. Davlat ayblovchisi bu yerda tergovchi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun faol usullardan foydalanishi kerak. Tergovdagi kamchiliklarni ishdagi mavjud dalillarni har tomonlama tekshirish, ya'ni sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohni chuqur so'roq qilish; ashyoviy dalillarni qo'shimcha ravishda ko'zdan kechirish; to'liq tekshirilmagan hamda yangitdan yuzaga kelgan masalalarni aniqlash va hal qilish uchun yangi dalillarni topish orqali to'ldirishi mumkin" [15].

Jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan yolg'on ko'rsatmalar berish ayblov taktikasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yana bir holat hisoblanadi. Sudlanuvchidan farqli ravishda, guvoh va jabrlanuvchi tomonidan yolg'on ko'rsatma berilishi ularni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Biroq amalda qonunning ushbu talablariga har doim ham amal qilinavermaydi. Yolg'on ko'rsatma berilayotganlik belgilari aniqlangan taqdirda, so'roq vaqtida so'roq qilinayotgan shaxsning xulq-atvori qattiq kuzatilishi kerak. Kishining har qanday faoliyati, jumladan, huquqqa xilof faoliyati ham, ruhiy bosim ostida amalga oshiriladi. Shuning uchun so'roq qilinayotgan shaxsga savollar bera turib, davlat ayblovchisi uning xulq-atvorini, nutqini, qo'yilgan savollarga ta'sirini kuzatib borishi kerak. "Sudda kuzatishning o'ziga xos xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, protsessning boshqa ishtirokchilarini, ularning xulq-atvorini doimiy kuzatayotgan shaxsni bir vaqtning o'zida sudlanuvchi, uning himoyachisi kuzatib boradi. Bu asosan prokurorlarga tegishlidir". Himoyachi ko'pincha o'zining guvohlari bilan bo'ladigan so'roqda o'zini qanday tutish kerakligi, savollarga berilishi kerak bo'lgan javoblar ustida shug'ullanadi. Shuning uchun sud tergovida davlat ayblovchisi guvoh ko'rsatmalarini aniq berayotganligini, o'ziga ishonganligini, xarakteri, ya'ni fe'l-atvorini, o'zini tutishini kuzatishi lozim. Buni aniqlab, prokuror kriminalistikaning guvoh, jabrlanuvchi yolg'on ko'rsatma berganini oshkor qiladigan taktik usullari va tavsiyalaridan foydalanishi mumkin.

Xulosa

Shunday qilib, sud muhokamasi nafaqat ishni ko'rishda ishtirok etayotgan shaxslarning mantiqiy xulosalari, balki his-hayajon, kechinmalar o'yini ham hisoblanadi. Davlat ayblovchilari esa bu holatni o'z kasbiy faoliyatida juda kam hisobga oladilar. Odatda prokurorlar ashyoviy dalillarni tekshirishda, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilishda ishtirok etadilar, nutq so'zlaydilar. Lekin



protsess ishtirokchilarining ta'sirini kuzatmaydilar. Shuning uchun prokurorlarni sudda kuzatuv usulidan foydalanishga hamda ishontira olish xususiyatini shakllantirishga o'rgatish kerak. Bundan tashqari, "... sudda davlat ayblovini quvvatlashda jinoyat ishlarining turlaridan kelib chiqib, prokuraturaning faoliyatida ixtisoslashtirish amalga oshirilishi kerak. Isbotlash predmetining hamda muayyan huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish murakkab ishlar bo'yicha ayblovni yuqori saviyada isbotlashga imkon beradi". Chunki davlat ayblovchilarining hammasi ham vaqtning tig'izligida kompyuter axboroti doirasida yoki harakat xavfsizligi, transportni ekspluatatsiya qilish doirasidagi jinoyatlar bo'yicha ishni yuqori darajada hal qila olmaydi. Davlat ayblovchilarini ixtisoslashtirishni ularning kasb tayyorgarligi hamda tajribasini hisobga olib o'tkazish maqsadga muvofiq. Umumiy nazorat olib boruvchi prokurorlar, bizningcha, iqtisodiy faoliyat sohasidagi yoki iqtisodiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ayblovni muvaffaqiyatli quvvatlasalar kerak.

Ilgari tergovchi bo'lib ishlagan ayblovchilar esa inson hayoti va sog'lig'iga qarshi, mansabdorlik jinoyatlari va poraxo'rlikka doir ishlar bo'yicha ayblovni quvvatlashlari lozim. Sababi, bu jinoyatlar huquqni qo'llash amaliyotida juda ko'p uchraydi hamda ulardan tergovchilar yaxshi xabardorlar. Lekin ushbu taklif va tavsiyalar ham keng munozaraga sabab bo'lishi aniqdir.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, davlat ayblovining sifatini oshirish uchun, birinchi navbatda, dastlab suddagi har bitta protsessga tayyorgarlik ko'rish kerak. Bu tayyorgarlik dastlabki tergov bosqichlaridayoq boshlanishi lozim.

REFERENCES

1. Narbutayev E.X. Prestupleniye i ugovovnyy protsess: perspektivy razvitiya ugovovnogo i ugovovno-protsessualnogo zakonodatelstva [Crime and criminal procedure: prospects for the development of criminal and criminal procedure legislation]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2013, pp. 117–118.
2. Rozovskiy B.G. Nenauchnyye zametki o nekotorykh nauchnykh problemakh ugovovnogo protsessa [Unscientific notes on some scientific problems of the criminal process: An essay]. Lugansk, RIO LAVD, 2004, pp. 45–46, 557–558. Available at: <http://kalinovsky-k.narod.ru/b/rozovsky2004/>
3. Statistical data of the Supreme Court dated 2023, March 16, No. 07/13-3378-121.
4. Akramxodjayev B. Huquqni tiklovchi odil sudlovga tomon keskin burilish yuz bergani yo'q [There has not been a sharp shift towards restorative justice]. *Law*, 2004, no. 2 (26), pp. 40–43.

5. To'rayeva D.R. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmini takomillashtirish [Improvement of the mechanism of protection of the rights and interests of the victim in criminal proceedings]. PhD thesis. Tashkent, MIA Academy, 2020, p. 35.
6. Kirillova N.P. Protsessual'nyye i kriminalisticheskiye osobennosti gosudarstvennogo obvineniya v sude pervoy instancesii [Procedural and criminalistic features of the state prosecution in the court of first instance]. St. Petersburg, 1996.
7. Koni A.F. Priyomy i zadachi prokuratury [Methods of the task of the prosecutor's office]. Collected Works. In 8 vol. Moscow, Yuridicheskaya Literatura Publ., 1966–1969.
8. Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan kontrol va nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlarini [Theoretical, organizational and procedural aspects of improving control and supervision over the activities of preliminary investigation agencies]. Doctoral Dissertation. Tashkent, 2016, 287 p.
9. Rustamboyev M.N., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar [Judiciary and law enforcement agencies]. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2011, 720 p.
10. Jinoyat-protsessual huquqi [Criminal procedural law]. General part. The team of authors. G.Z. Tulaganova, S.M. Rachmanov Eds. Tashkent, TSUL Publ., 2017. 490 p.
11. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Special part. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2012, 488 p.
12. Dodonov V.N., Krutskikh V.Ye. Prokuratura v Rossii i za rubezhom. Sravnitel'noye issledovaniye [Prosecutor's office in Russia and abroad. Comparative study]. S.I. Gerasimov Ed. Moscow, Norma, 2001, pp. 66–70.
13. Filimonov B.A. Zashchitnik v Germanskom ugolovnom protsesse [Defense lawyer in German criminal proceedings]. Moscow, 1997, p. 56.
14. Reshetnikov F.M. Pravovyye sistemy stran mira [Legal systems of countries around the world]. Moscow, 1993, p. 111.
15. Rashidov B. N., Xushvaqtova N.A. Xususiy ayblov institutini qo'llash tartibi [The procedure for applying the institution of private prosecution]. Tashkent, MIA Academy, 2015, p. 47.



DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.4.1./LNOV8035>
UDC: 343.1(045)(575.1)

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV: HUQUQNI QO'LLASH MUAMMOLARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

Jamoat xavfsizligi universiteti

Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida sudga qadar ish yurituvining alohida bosqichi hisoblangan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda vujudga kelayotgan huquqiy muammolar muhokama qilingan. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv bosqichining vazifalaridan biri – jinoyat haqidagi ariza va xabarlarda jinoyat faktining mavjudligi yoki mavjud emasligini tasdiqlashda ayrim tergov harakatlarini o'tkazish zarurati ochib berilgan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 329-moddasida nazarda tutilgan ro'yxat asosida keltirilgan tergov harakatlari yetarli emasligi, boz ustiga ushbu moddada keltirilgan tergov va protsessual harakatlardan boshqa tergov harakatlari o'tkazilishi qat'iy man etilishi borasidagi keskin qoida huquqni qo'llash amaliyotida ko'plab muammolarni keltirib chiqarayotgani asoslab berilgan. Tergovga qadar tekshiruv davomida o'tkazilishi zarur bo'lgan tergov harakatlari sirasiga kiruvchi yuzlashtirish, murdani ekskumatsiya qilish, qiyosiy tekshirish uchun namunalar olish va boshqa bir qancha tergov harakatlari sudning ruxsati bilan amalga oshirishi lozimligi tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan, buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tergovga qadar tekshiruv, sudga qadar ish yurituvi, yuzlashtirish, ekskumatsiya, qiyosiy tekshirish uchun namunalar olish, sudning ruxsati, ariza, qayta da'vo, jinoyat fakti.

ДОСЛЕДСТВЕННАЯ ПРОВЕРКА: ПРОБЛЕМЫ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Уголовно-правовые науки»

Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые проблемы, возникающие при проведении доследственной проверки, которая в уголовно-процессуальном законодательстве нашей страны является отдельным этапом досудебного производства. Также в статье перечислены задачи этапа доследственной проверки, раскрывается необходимость проведения отдельных следственных действий при подтверждении наличия или отсутствия факта преступления в заявлениях и сообщениях о преступлении. При этом указывается, что перечень доследственных действий, предусмотренный статьёй 329 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также строгое правило о строгом запрете на совершение иных доследственных действий, не изложенных в статье, создают множество проблем в правоприменительной практике. Среди следственных действий, которые должны быть предприняты в ходе досудебной проверки, – очная ставка, эксгумация трупа, получение образцов для экспертного исследования и ряд других следственных действий, в том числе с участием подозреваемого, которые должны быть выполнены с разрешения суда. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: доследственная проверка, досудебное производство, очная ставка, эксгумация, получение образцов для экспертного исследования, разрешение суда, ходатайство, повторный иск, факт преступления.

PRE-INVESTIGATION CHECK: PROBLEMS OF LAW ENFORCEMENT

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Associate Professor of the Department of “Criminal Law Sciences”,
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. This article examines the legal problems that arise during the conduct of a pre-investigation check, which in the Criminal Procedure legislation of our country is a separate stage of pre-trial proceedings. The article also lists the tasks of the pre-investigation verification stage and reveals the need for separate investigative actions to confirm the presence or absence of the fact of a crime in statements and reports of a crime. At the same time, based on the list provided for in Article 329 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, which is insufficiently represented by investigative actions, the strict rule on the strict prohibition of investigative actions set out in this article creates many problems in law enforcement practice. Among the investigative actions to be taken during the pre-trial investigation are confrontation,



exhumation of a corpse, sampling for comparative research, and a number of other investigative actions that must be carried out with the permission of the court. The research used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. During the research, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

Keywords: *pre-investigation check, pre-trial proceedings, confrontation, exhumation, obtaining samples for expert examination, court permission, petition, re-claim, the fact of a crime.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-sonli Farmonining 5-bandi birinchi xatboshisida "tergovga qadar tekshiruv yoki tergovda ushlangan shaxsni va ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan mahkumni tibbiy ko'rikdan o'tkazish", 11-bandi ikkinchi xatboshisida "sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash ustidan sud nazoratini kuchaytirish" kabi vazifalar qo'yilgan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishida aynan 87-maqсад – "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmat va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish" ko'rsatib o'tilgan. Unda tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvohning huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat berish kabi ustuvor maqsadlar belgilangan bo'lib, ularning bajarilishi mamlakatimizdagi har bir shaxsning, xususan, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari kafolatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Material va metodlar

Yuqorida nomlari qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar aynan tergovga qadar tekshiruvda ayrim tergov harakatlarini o'tkazish bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi zaruratidan kelib chiqib, tegishli tavsiya va takliflarni shakllantirish lozimligini anglatadi. Bunda mavzu yuzasidan tadqiqot va tahlillarni jinoyat protsessining sudga qadar ish yurituvda tergovga qadar tekshiruv muhim o'rinni egallashini inobatga olib amalga oshirish lozim bo'ladi.

Maqolada tergovga qadar tekshiruv bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, normativ tushunmovchiliklar va isbotlash hamda jinoyat faktini asoslashda inobatga olinishi lozim bo'lgan qoidalar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv davomida quyidagi tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat etiladi. Bular: qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish bo'lishi mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida sanab o'tilgan tergov harakatlaridan boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi.

Yuqoridagi normada sanab o'tilgan barcha protsessual harakatlarni ham tergov harakati sirasiga kiritib bo'lmaydi. Xususan, M.D. Botayev tergovga qadar tekshiruvda 3 ta protsessual harakat, 1 ta protsessual majburlov chorasi va 5 ta tergov harakatiga ruxsat berilganini ta'kidlaydi [1, 53-b.].

Ushbu fikr o'z ma'nosiga ko'ra juz'iydir, biroq tushuntirishlar yoki qo'shimcha hujjatlarni talab qilishni protsessual harakat sifatida e'tirof etish uning huquqiy ma'noda tartibiga murojaat qilishga sababchi bo'ladi. Afsuski, protsessual qonunchiligimizda tushuntirishlar talab qilish yoki sanab o'tilgan ayrim protsessual harakatlarning qoidalari nazarda tutilgan normalar mavjud emas.

Bundan tashqari, mamlakatimiz Prezidenti farmonlarida tergovga qadar tekshiruv davrida harakatlarning optimallasuvi, ortiqcha vaqt va resurs sarfini kamaytirishga oid vazifalar mavjud. Bu esa tergovga qadar tekshiruv vaqtida ruxsat berilgan tergov harakatlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi. Xususan, bir guruh olimlar tergovga qadar tekshiruvda yuzlashtirish tergov harakati o'tkazish uchun jinoyat ishini qo'zg'atish zarurati, jinoyat-protsessining prinsiplari va vazifalariga zid ekanligini ta'kidlashadi [2, 63-b.; 3].

J.A. Xolboyevning fikricha, "Yuzlashtirish, bu ilgari so'roq qilingan ikki shaxs ko'rsatmalari o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo'lganda ularning sababini aniqlash uchun o'tkaziladigan tergov harakatidir, ... jinoyat ishining xususiyatlari yuzlashtirish ishtirokchilarning shaxsi va yuzlashtirish sharoitlari bilan mutanosib bo'lgan eng samarali usullar yig'indisidir" [4, 66-74-b.].

Yuridik ensiklopediyalarda "Yuzlashtirish – tergov harakati; bunda ilgari so'roq qilingan ikki shaxs, basharti ularning aynan bir xil fakt va holatlarga nisbatan bergan ko'rsatuvlarida jiddiy qarama-qarshiliklar bo'lsa, bir vaqtning o'zida bir-birining ishtirokida ko'rsatuvlar beradi. Yuzlashtirishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin", – deya ta'rif berilgan [5].

Demak, ma'lum bo'ladiki, yuzlashtirish tergov harakati protsess ishtirokchilarining ko'rsatmalari o'zaro qarama-qarshi kelgan hollarda o'tkaziladi va mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etishni maqsad qiladi.

Tergovga qadar tekshiruv (keyingi o'rinlarda TQT) vaqtida tushuntirishlar talab qilish orqali shaxslarning ko'rsatmalari mustahkamlanadi, biroq yuqorida bayon etganimiz – ushbu harakatning qoidalari JPKda keltirilmagan. Bugungi kunda huquq anologiyasi sifatida so'roqning umumiy qoidalariga rioya qilingan holda tushuntirish xatlari rasmiylashtirilmoqda. Biroq shu o'rinda TQT davrida ishtirokchilarning



ko'rsatmalari bir-biriga nomuvofiq bo'lsa yoki mutlaqo ziddiyat kasb etsa, ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun qanday yo'l tutilishi lozim?

R.S.Yanovskiyning fikricha, "Yuzlashtirish qonunga ko'ra faqatgina jinoyat ishi doirasida amalga oshirilishi mumkin, shu bois har qanday hollarda jinoyat ishini qo'zg'atib, so'ng zarur tergov harakatlari orqali jinoyat tarkibi mavjudligi yoki aksincha, dalillar orqali jinoyat ishini tugatish lozimligi to'g'risida xulosa qilish bahslarga barham beradi" [6, 72-b.].

To'g'ri, qonun TQT davrida yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazishga ruxsat bermaydi, biroq jinoyat ishini qo'zg'atish taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emas. Shu bois R.S.Yanovskiyning fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi.

A.R.Belkin esa jinoyat faktini isbotlashda yuzlashtirish o'tkazish zarur bo'lsa, faqatgina qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun jinoyat ishini qo'zg'atish ham protsessual jihatdan, ham taktik jihatdan xato ekanini, bu jarayonni rasmiylashtirish uchun sudga qadar ish yurituvda o'tkazilishi mumkin bo'lgan alohida tergov harakatlari bo'limini tashkil etish lozimligini ta'kidlaydi [7, 99–100-b.].

Mazkur fikrlarga qo'shilish mumkin, biroq har bir bosqich uchun alohida tartib belgilanishi kodeks qoidalari ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, bir-biriga zid kollizion normalarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Bu borada A.A.Stepanov boshchiligidagi olimlarning fikrlari diqqatga sazovor. Ularning ta'kidlashicha, nafaqat yuzlashtirish, balki jinoyat faktini tasdiqlashi mumkin bo'lgan har qanday tergov harakatini o'tkazish uchun tergovga qadar tekshiruvni tartibga soluvchi normada istisno tariqasida o'tkazish sudning ruxsati asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda xalqaro qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga ham, milliy qonunchilikdagi sudlar nazoratiga ham putur yetmaydi [8, 346–348-b.].

Ushbu fikrlarga to'la qo'shilgan holda aytish mumkinki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham inson manfaati yotadi va sudga qadar ish yurituvi bosqichida sud nazorati o'rnatilishi juda dolzarb. Ayniqsa, faqatgina jinoyat faktini aniqlash uchun jinoyat ishini qo'zg'atish bilan bog'liq ortiqcha vaqt va resurs sarfi bu jarayonlarga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada o'tkazilgan so'rovnomalarda respondentlarning deyarli 90 foizi (89,7 foizi) yuzlashtirish tergov harakatini tergovga qadar tekshiruv davrida o'tkazishga ruxsat berilishi kerakligini bildirdilar".

Bu borada amaliyotdagi muammoli holatlar ahamiyatli, jumladan, Termiz prokuraturasida tugatilgan jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, M.A. fuqaro I.I.ning ishonchiga kirib, undan jami 2 000 AQSh dollari miqdorida pul olgan, o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruv davrida fuqaro I.I. ushbu pulni M.A. uy olib berishni va'da qilib olganini bildirib ko'rsatuv bergan bo'lsa, M.A. uni I.I.dan o'z ehtiyoji uchun qarz sifatida olganini bildirgan. Shunday bo'lsa-da, holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan va o'tkazilgan tergov harakatlari, xususan, yuzlashtirish natijasida jinoyat faktlari o'z isbotini topmagani bois jinoyat ishi JPKning 83-moddasi 1-qismiga asosan tugatilgan [9].

Shuningdek, Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi TBda tugatilgan 244131/2017-34-sonli jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, fuqaro A.S. o'z uyi hovlisida bo'lgan kiyimlarini noma'lum shaxslar o'g'irlab ketgani haqida ariza bergan, biroq

uning turmush o'rtog'i bu holatdan bexabar bo'lib, o'zining ehtiyotsizligi sababli mazkur buyumlarni yo'qotib qo'rganini yashirgan holda, tushuntirishlaridagi ko'rsatmalarini bir necha marotaba o'zgartirgan. Vujudga kelgan holat bo'yicha yuzlashtirish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish zarurati tufayli jinoyat ishi qo'zg'atilgan, biroq jinoiy holat o'z tasdig'ini topmagani bois 2017-yil 31-martda jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 1-bandiga asosan tugatilgan [10].

Demak, yuqoridagi amaliy misollardan ma'lum bo'ladiki, tergovga qadar tekshiruv davrida olingan tushuntirish xatlaridagi protsess ishtirokchilarining bergan yolg'on ko'rsatuvlari bo'yicha hech qanday javobgarlik belgilanmagan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 238-moddasida "Yolg'on guvohlik berish, ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog'ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berishi, xuddi shuningdek, tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi"ga jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, nafaqat surishtiruv olib borishda, balki tergovga qadar tekshiruv vaqtida ham protsess ishtirokchilarining to'g'ri ko'rsatma berishi muhim. Bu jarayonlarda yolg'on ko'rsatmalar yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ko'rsatuvlar berilishi jinoyat ishini qo'zg'atish va boshqa ortiqcha ovoragarchiliklarga olib keladi.

Bizningcha, yuqoridagilarga asosan, avvalo, O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan tergovga qadar tekshiruv jarayonlarida tushuntirishlar talab qilib olishning protsessual tartibini ishlab chiqish, uning protsessual qoidalarini JPKga qo'shimcha va o'zgartish sifatida kiritish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi JPKning TQTda yuzlashtirish o'tkazish bilan bog'liq 329-moddasi ikkinchi qismiga tegishli tahrirda o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Tergov amaliyotida murdani ekskumatsiya qilish, tergov harakatini o'tkazmasdan turib jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad qilishning imkoni bo'lmaydigan holatlar uchrab turadi. Shu sababli, olimlarning murdani ekskumatsiya qilishni tergovga qadar tekshiruv davrida o'tkazish mumkinligini belgilovchi qoidalarni o'rnatish borasidagi fikrlarini tahlil qilish lozim.

Yuridik ensiklopediyalarda "*Ekskumatsiya* (lot. *exhumus* – yerdan) – murdani ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazish zaruriyati tug'ilganda uni dafn etilgan joyidan qazib olishdir. O'zbekistonda ekskumatsiya tergovchi yoki surishtiruvchining qarori va prokurorning ruxsati asosida o'tkaziladi (*eski talqin*). Qarorda ekskumatsiyaning sabablari ko'rsatiladi. Ekskumatsiya odatda o'limga sabab bo'lgan holatlarni aniqlash, o'lgan kishining shaxsini belgilash, birinchi marta yoki qayta sud-tibbiy ekspertiza o'tkazish va boshqalar maqsadlarda qilinadi. Ekskumatsiya paytida sud tibbiyoti sohasidagi shifokor, zarur bo'lsa, boshqa mutaxassislar ham qatnashadi" [11], deya qayd etilgan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, ekskumatsiya – inson murdasi bilan tibbiy tadqiqotlar olib borilishi nuqtayi nazaridan nafaqat yuridik, balki tibbiy tushuncha ekanligi bilan ham kompleks o'rganishni talab qiladi.



Boshqa tibbiy ensiklopediyalarda “*Eksyumatsiya* (lot. *exhumus* – yerdan) – murdani koʻzdan kechirish va ekspertiza oʻtkazish zaruriyati tugʻilganda uni dafn etilgan joyidan qazib olish. Inson murdasi bilan patanotomik tekshiruvlar, uning tanasidan oʻlim sababi, biologik holatlar va boshqa tergov oldiga qoʻyilgan savollarga javob topish uchun tibbiy maqsadlarda qon, toʻqimalar, soch, suyak hamda boshqa inson aʼzolaridan namunalar olish, tadqiqotlar oʻtkazish va murdani qayta dafn etishdan iborat sud komission ekspertiza bilan kechuvchi tergov harakatidir” [12], deya izoh berilgan.

O.V.Axmadeyevaning fikricha, “*Eksyumatsiya*, bu – koʻmilgan inson murdasini uning oʻlim sababini aniqlash yoki tanib olish uchun koʻzdan kechirish yoki patanotomik tekshirish uchun qabrdan qazib olishdan iborat tergov harakati. Koʻpincha jiddiy isbot talab etish bilan bogʻliq vaziyatlarda amalga oshiriladi. Jiddiy vaziyat deganda esa tergov harakati jinoyat tarkibi mavjud yoki mavjud emasligini hal etadi” [13, 30–62-b.].

Yuqoridagi fikrlar eksyumatsiya oʻtkazilishi kamyob va faqatgina jiddiy zarurat boʻlganda amalga oshiriladigan tergov harakati ekanligini tasdiqlaydi. Bizningcha, mazkur tergov harakati faqatgina tanib olish va zoʻraki oʻlim alomatlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchungina oʻtkazilishi, bunda, albatta, murdaning yaqin qarindoshlari xabardor qilinishi zarur. Sababi JPKning ayni tergov harakatini tartibga soluvchi normalari ham shu tartibni qoidalar bilan mustahkamlagan. Tahlil qilinayotgan mavzu – tergov harakatini oʻtkazishga ruxsat berishning prokurorlardan sudga oʻtkazilgani esa bu boradagi shaffoflikka, surishtiruvchi va tergovchining tergov harakatini oʻtkazishdagi qiyinchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Biroq ushbu tergov harakati har doim ham jinoyat ishi doirasida amalga oshirilmaydi, yuqoridagi olimaning ham ayni haqiqat boʻlgan jiddiy vaziyat borasida fikr yuritishi bejiz emas. Sababi jinoyat faktini isbotlash bilan bogʻliq holatlar koʻpincha tergovga qadar tekshiruvda, yaʼni jinoyat ishini qoʻzgʻatishdan oldin vujudga keladi.

M.A.Uarovanning taʼkidlashicha, “... eksyumatsiya tergov harakati koʻpincha murdada zoʻraki oʻlim alomatlarini kompleks yoki komission ekspertiza orqali tekshirish bilan kechadi, shu bois eksyumatsiya tergov harakatlari oʻtkazilgan jinoyat ishlari jinoyat tarkibi boʻlmaganligi (reabilitatsiya etiluvchi) asosi bilan tugatilganini koʻrish mumkin” [14, 37–38-b.].

Ushbu fikrlarga qoʻshilgan holda, alohida qayd etish lozimki, eksyumatsiya tergov harakatini amalga oshirilgan ishlarning natijalari haqiqatan ham jinoyat tarkibi mavjud emasligi asosi bilan tugatilgan.

Tadqiqot davomida oʻrganilgan eksyumatsiya tergov harakati oʻtkazilgan jinoyat ishlari va tergovga qadar tekshiruv hujjatlarining koʻp qismi – 67,4 foizi (112/166) JPKning 83-moddasi 1- va 2-bandiga asosan tugatilgani yoxud rad etilgani aniqlandi [15].

Oliy Sud tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarga koʻra, sud ruxsati talab etiluvchi tergov harakatlarini oʻtkazish uchun berilgan iltimosnomalar 2018-yilda 972 tani, 2019-yilda 894 tani, 2020-yilda 1039 tani, 2021-yilda 2138 tani 2022-yilda esa 2363 tani tashkil etgan [16]. Statistik maʼlumotlar tahlili, soʻnggi yillarda murdani

eksgumatsiya qilish va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash tergov harakatlarini o'tkazishda o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

M.A. Uarova bu borada "Tergov amaliyotidagi asosiy muammolardan biri murdani eks gumatsiya qilish bilan bog'liq. Jumladan, amaliyotda shaxs vafot etib, u dafn etilganidan so'ng uning yaqin qarindoshlari shaxsning hayotiga suiqasd qilingani, vafot etishiga unga yetkazilgan tan jarohati yoki shifokorlar tomonidan o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilmagani sabab bo'lgani yoxud noto'g'ri tibbiy muolaja qilingani haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojaat qilishadi" [14, 38-b.], – deya qayd etadi.

Mazkur holatda JPKning 173-moddasiga ko'ra, o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash uchun ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart hisoblanadi. Buning uchun murdani eks gumatsiya qilish zarurati yuzaga keladi. Qonunchilikka muvofiq, murdani eks gumatsiya qilish faqatgina tergov harakati qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida o'tkazilishi mumkin.

Qayd etish lozimki, shaxslarning arizalarida keltirilgan holatlar va vajlar doim ham o'z tasdig'ini topmaydi. Natijada birgina tergov harakatini o'tkazish uchun jinoyat ishini qo'zg'atib, keyin ishni tugatish zarurati paydo bo'lishi sudga qadar ish yurituvda ortiqcha byurokratik to'siq va qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu ishlarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin:

2017-yil 5-iyul kuni Yangiyer shahrida yashovchi G.Z. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq qabulxonasiga ariza bilan murojaat qilib, o'z arizasida 1937-yilda tug'ilgan yolg'iz nafaqaxo'r onasi S.X.ni bemorligi sabab davolatish uchun 2017-yil 14-iyun kuni Yangiyer shahrida joylashgan asab va ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yotqizganini, biroq unga noma'lum bo'lgan sabablarga ko'ra onasi 15-iyun kuni shifoxonada vafot etganini, onasining butun tanasida turli jarohatlar borligini ko'rganini, shuningdek, shifokorlar tomonidan onasining o'limiga sabab bo'lgan holat haqida noto'g'ri xulosa qilganini bildirib, shu sababli mazkur holat yuzasidan surishtiruv harakatlari o'tkazishni va aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishni so'ragan.

Holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv hujjatlarida biror-bir jinoyat alomatlari bo'lmagani sababli 2017-yil 19-iyulda O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 1-qismiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv jarayonida G.Z. Yangiyer shahrida joylashgan asab va ruhiy kasalliklar shifoxonasida onasi S.X. kasalxonada vafot etganidan so'ng uning murdasini kasalxonadan olib ketishi paytida shifokorlar – A.E. va D.S. unga tibbiy yo'riqnomalarga zid ravishda tibbiy kartadan ko'chirma berishgani, vaholanki, tibbiy kartadan ko'chirma kasalxonadan chiqib ketayotgan tirik odamga nisbatan berilishi, shifokorlar shu tariqa o'zlarining jinoiy qilmishlarini yashirganini bayon etib, tibbiy kartadan ko'chirmani taqdim qilgan.

Qaror shahar prokurori tomonidan ish holatlari to'liq tekshirilmasdan qabul qilingani sababli bekor qilinib, qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o'tkazish uchun Yangiyer shahar IIB huzuridagi TBga yuborilgan. Shundan so'ng murdani eks gumatsiya qilish va ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish



to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqida qaror qabul qilinib, ushbu qaror asosida JIB Yangiyer shahar sudi tomonidan ajrim chiqarilgan va tergov harakati o'tkazish uchun ruxsat berilgan. Marhuma S.X.ning o'lim sabablari va badanida tan jarohatlari mavjudligini aniqlash maqsadida uni qabrdan ekskumatsiya qilib, sudga oid tibbiyot ekspertizasini o'tkazish tayinlangan.

Sudga oid tibbiy ekspertizaning 2017-yil 12-avgustdagi 62-sonli xulosasiga ko'ra, marhuma S.X.ning badanida makro-morfologik tekshiruv o'tkazilganida uning suyak tizimida va badanida zo'raki o'limga olib keluvchi biror-bir tan jarohati topilmagani aniqlangan. Shuningdek, laborator tekshiruvlarga ko'ra, murdadan olingan namunalarda tanasida etil spirti va orqa chiqaruv teshigi va qin dahlizidan olingan dokali trundagi surtmalarda spermatozoidlar topilmagani aniqlangan.

Marhuma S.X.ning murdasida zo'raki o'lim alomatlari aniqlanmagani sababli to'plangan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 1-qismiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror qabul qilingan [17].

Yuqorida tahlil etilgan amaliyotdagi holatlardan ma'lum bo'ladiki, tergovga qadar tekshiruv davrida jinoyat faktini tasdiqlash uchun murdani ekskumatsiya qilishning real zarurati vujudga keladi. Bunday hollarda huquqni qo'llovchi vaziyatni inobatga olgan holda, garchi jinoyat protsessiga zid bo'lsa-da, jinoyat ishini qo'zg'atmasdan turib ushbu tergov harakatini amalga oshirib kelmoqda.

Ekskumatsiya tergov harakati tarixini o'rgangan olimlar bu borada diniy qarashlar bunday harakatlarni qoralaganini ta'kidlashadi. Ushbu qarashlar jamiyatning qonunlarda nazarda tutilgan ayrim qoidalar bilan o'zaro kelishmasligida namoyon bo'ladi. Bu esa surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tergov harakatini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Biroq islom dini ekskumatsiyaga birovning haqi nuqtayi nazaridan ruxsat beradi, ya'ni bir guruh islom huquqshunoslari (fuqaholari) "Bu ish birovning haqqiga tegishli bo'lsa, joiz. Fuqaholar birovning qimmatbaho toshini yutib yuborib o'lgan kishini qabrda bo'lsa ham, qornini yorib olishga ruxsat berganlar", – deb ta'kidlaydilar [18].

Bir qancha olimlar yuqoridagilarga asosan tahlil etilayotgan tergov harakatini tergovga qadar tekshiruv davrida yoki jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin amalga oshirish borasida ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surishgan. Xususan, V.P. Bojyev [19, 66–74-b.], A.R. Sisenko [20, 14–16-b.], A.N. Ilyashenko, D.N. Lozovskiy [21, 87–91-b.], A.E. Kriger [22, 44–48-b.] va boshqa ko'plab olimlar ekskumatsiya tergov harakatini jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin amalga oshirish, bunda sud ruxsatini olish tizimi hamda mexanizmlari muhim ahamiyatga egaligi borasidagi fikrlarni qayd etishgan.

Olimlarimizdan M.D. Botayev [1, 135–136-b.], X.H. Egamberdiyev [23, 42–43-b.], D.M. Qurbonov [24, 35–40-b.] va B. Rajabov [25, 209–212-b.]lar ham murdani ekskumatsiya qilish tergov harakatini tergovga qadar tekshiruv davrida o'tkazilishi mumkin bo'lgan tergov harakati ro'yxatiga kiritish va JPKning 329-moddasining ikkinchi qismini bir qancha tergov hamda protsessual harakatlar bilan boyitishni taklif etadilar.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qisman qo'shilamiz, shu bilan birga, taklif etilayotgan tahrirda jami 16 ta tergov va protsessual harakat sanalgani, albatta, o'z o'rnida mavjud boshqa normalar bilan kollizion holatlar vujudga keltirishini ham inobatga olish lozim, deb o'ylaymiz. Ya'ni tergovga qadar tekshiruv davrida ruxsat etilgan qaysi tergov harakatlari sanab o'tilgan bo'lmasin, barchasining zahirida kelib tushgan ariza va xabarda qonuniy qaror qabul qilish uchun jinoyat tarkibi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash bosh maqsad bo'lib qoladi. Shu bois tergov harakatlarini ikkiga bo'lgan holda – ayrimlarini mazkur ro'yxatga kiritish, qolgan barcha zaruriy, ya'ni kelib tushgan ariza va xabarda jinoyat tarkibi bor yoki yo'qligini aniqlash uchun zarur deb topilgan tergov harakatlarini o'tkazish mumkin. Biroq bunga tegishli sud ruxsat berishi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot jarayonida tergov harakatlarini o'tkazish tartibini belgilashda qonunchilikda huquqiy bo'shliqlar, kollizion holatlar, Konstitutsiya normalariga zid qoidalar hamda huquqni qo'llash amaliyotida bartaraf etish zarur bo'lgan muammolar borligi ma'lum bo'ldi. Xususan, JPKning 139-moddasiga ko'ra, fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish zarurati bo'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi bu haqda qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

B.Sh. Qobulovning ta'kidlashicha, "Mazkur holatda shaxsning turar joy daxlsizligiga ta'sir qiluvchi ushbu tergov harakatini o'tkazishda na prokuror va na sud nazorati mavjud emas. Shuningdek, fuqaroning uyi yoki xizmat joyida eksperiment yoki ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish qanday amalga oshirilishi ham aniq belgilanmagan" [26, 209–212-b.].

Bizningcha, tergovga qadar tekshiruv vaqtida JPKning 329-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan qat'iy qoida, ya'ni "...tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man etiladi" jumlasini mazkur qonunchilikdan chiqarib tashlash maqsadga muvofiq, sababi sud-tergov amaliyotida jinoyat faktini isbotlash bilan bog'liq hollarda har qanday istisnoli holatlarga duch kelinishi mumkin. Shu bois bu kabi qat'iy qoidalar bilan huquqni qo'llovchi amaliyotchilar qonun normalariga rioya etish fonida ishning haqiqiy holatlarini aniqlamasligi, qolaversa, bu jamiyatning jinoyatchilikka murosasiz munosabatiga salbiy ta'sir etishiga olib borishi mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi JPKning 329-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ro'yxat asosida keltirilgan tergov harakatlaridan tashqari, boshqa tergov harakatlarining o'tkazilishi qat'iy taqiqlanishi bilan bog'liq qoida hamda tergovga qadar tekshiruv davrida quyidagi bir qancha muammolarni tadqiq etish zarurati mavjud. Jumladan:

birinchidan, TQT davomida ishtirokchilarning ko'rsatmalari olingan hollarda ularning to'g'riligi borasidagi ogohlantirishlar samara bermasligi yoki muayyan tartibning o'zi mavjud emasligi, ya'ni bugungi kunda tergovga qadar tekshiruv davrida ishtirokchilardan tushuntirishlar olishda qanday protsessual qoidalarga rioya qilinishi, ular qanday huquqlardan foydalana olishi va boshqa tartiblar yo'qligi;



ikkinchidan, protsess ishtirokchilarining biror-bir maqomi, jumladan, kelgusida gumon qilinuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxsning, guvohning yoki jabrlanuvchi tarafning maqomi yo'qligi, TQT vaqtida ruxsat berilgan tergov harakatlari ularning o'z manfaatlarini himoya qilishda to'sqinlik keltirib chiqarayotgani, xususan, ekspertizalar tayinlashda va o'tkazishda JPKning 179-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalana olmasligi va boshqalar;

uchinchidan, ishtirokchilarning himoya huquqidan foydalana olmasliklari, biror-bir maqomi e'tirof etilmagani, unga nisbatan huquq va majburiyatlar aks etmagan ishtirokchining bunday huquqlarini ta'minlash borasida qoidalarining o'zi mavjud emasligi;

to'rtinchidan, ayniqsa, yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq jinoyatlarga oid TQTda ekspertiza tekshiruv uchun yoki qiyosiy tekshirish uchun namunalar olish yoki tergov eksperimenti bilan bog'liq tergov harakatining o'tkazilishiga zarurat borligi;

beshinchidan tergov harakatlari o'tkazilishi uchun yoki tushuntirishlar olishda hozir bo'lmagan shaxsning TQTda ishtirokini ta'minlash bo'yicha protsessual qoida yoki TQT mansabdor shaxsining bu borada biror-bir vakolati mavjud emasligi. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga nazar tashlasak, bu kabi preventiv choralar ularda mavjudligiga va milliy qonunchiligimizdagi huquqiy bo'shliqlar bartaraf etilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Fransiya [26], Janubiy Koreya [27], Rossiya Federatsiyasi [28], Qozog'iston Respublikasi [29], Qirg'iz Respublikasi [30], Belarus Respublikalari [31] jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxsni sudga qadar ish yurituviga kelishini ta'minlashga qaratilgan "Hozir bo'lish majburiyati" ko'rinishidagi majburlov chorasi mavjud;

oltinchidan, kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari sirasiga kiruvchi shaxsni tibbiy guvohlantirish, tintuv, yoki narsa-buyum, murdani ko'zdan kechirish, pochta va telegraf jo'natmalarini xatlash kabi tergov harakatlarini o'tkazishga protsessual qoidalar yo'l qo'ymasligi;

yettinchidan, tergov harakatini amalga oshirishda ba'zi tergov harakatlarini, jumladan, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin amalga oshirilganligi, ular faqatgina tezkor tadbirlar sirasiga kiradigandek baholanib, daliliy ahamiyatga olinmayotganligi, bunda surishtiruv-tergov amaliyoti xodimlari jinoyat ishini sun'iy ravishda eski muddat bilan qo'zg'atish va shu yo'l orqali mazkur dalildan foydalanilishi kabi holatlar kuzatilayotgani hamda boshqa holatlar tergovga qadar tekshiruv sifatining tushishiga, daliliy ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi muhim ma'lumotlarning esa yo'qolib ketishiga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda.

Xulosalar

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni inobatga olib, ularning barchasiga huquqiy yechim sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining quyidagi ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

39²-modda. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxsining vakolatlari

Ushbu kodeksning 39¹-moddasida sanab o'tilgan har bir organning rahbarlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning boshlig'i sifatida harakat qila turib, tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o'ziga bo'ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, *ushbu kodeksning 329-moddasida nazarda tutilgan tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirishga (bundan sud ruxsatini olish nazarda tutilgan tergov harakatlari mustasno)*, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atishga yoki ish qo'zg'atishni rad etishga yoxud arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko'ra o'tkazishga haqlidir.

47-modda. Gumon qilinuvchi

Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxsdir.

Shaxs:

- 1) o'ziga nisbatan tergovga qadar tekshiruv boshlangan;
- 2) jinoyat sodir etishda gumon qilinib, ushbu kodeksning 221-moddasida belgilangan tartibida ushlangan;
- 3) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to'g'risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi.

48-modda. Gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari

(*Birinchi qism*) Gumon qilinuvchi: o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; jinoyat protsessining har qanday bosqichida o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish, ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish;

(*ikkinchi qism*) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, tergovga qadar tekshiruvda, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; o'ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish to'g'risidagi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarorlari va ushbu kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.

148-modda. Murdani eksqumatsiya qilish asoslari va tartibi

Ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalar olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish zarur bo'lgan taqdirda *tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi*, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur tergov harakatini o'tkazish asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining yoki tergovchining murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi.

Prokuror murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomaning asosliligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Sud murdani eksqumatsiya qilishni *tergovga qadar tekshiruv*, surishtiruv organlariga yoki tergovchiga topshiradi, bu haqda ajrim chiqaradi.

148¹-modda. Murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish (Birinchi qism) Murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnoma *tergovga qadar tekshiruv*, surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

(Uchinchi qism) Sud majlisida prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, *tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi*, qonuniy vakil yoki murdasi eksqumatsiya qilinishi lozim bo'lgan vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlaridan biri, zarur hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, shuningdek, agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa, himoyachi va qonuniy vakil ishtirok etadi.

149-modda. Murdani eksqumatsiya qilish tartibi

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud murdani eksqumatsiya qilishni sog'liqni saqlash organlari bilan kelishgan holda va murda ko'milgan joy vakilining ishtirokida amalga oshiradi. Sud eksqumatsiyani taraflar ishtirokida amalga oshiradi.

151-modda. Murdani eksqumatsiya qilish bayonnomasi

Ushbu kodeksning murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi 90–92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, *tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi*, surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa eksqumatsiya jarayoni va natijalarini sud majlisining bayonnomasida qayd etadi. Bayonnomaga *qabriston*, qabr, tobut va murdaning fotosuratlar, *audio-* va *videoyozuvlari* ilova qilinishi mumkin.

159-modda. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish to'g'risida qaror yoki ajrim

(Birinchi qism) Olib qo'yish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko'ra, tintuv sudning ajrimiga asosan o'tkaziladi.

160-modda. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish vaqtida hozir bo'ladigan shaxslar

(To'rtinchi qism) Tintuv qilinayotganlarga, xolislarga, mutaxassislariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak. Bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart.

161-modda. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish tartibi

(Ikkinchi qism) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish haqidagi qarorga yoki ajrimga asosan ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni qidirib topish maqsadida turar joyga yoki boshqa binoga kirishga haqlidir.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishga kirishishdan oldin olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan shaxsni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib, imzo qo'ydirishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan binoda yoki o'zga joyda turgan shaxslarning olib qo'yish yoki tintuv tamom bo'lgunga qadar shu bino yoki joydan chiqib ketishini, shuningdek, ularning bir-birlari bilan yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishini taqiqlab qo'yishga haqlidir.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish yoxud tintuv o'tkazish vaqtida shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlarning sir saqlanishiga doir choralarini ko'rishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish chog'ida qaror yoki ajrim bilan tanishtirganidan so'ng olinishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qiladi, taklif rad etilgan takdirda majburiy ravishda oladi. Basharti bu narsa va hujjatlar olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan joydan topilmasa, u holda tintuv o'tkaziladi.

191-modda. Namuna olish to'g'risidagi qaror yoki ajrim

Namuna olish to'g'risida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Unda: namuna oladigan shaxs yoki organ; namuna olinishi kerak bo'lgan shaxs; aynan qanday namuna va qancha miqdorda olinishi lozimligi; namuna olinadigan shaxs qachon va kimning huzuriga kelishi zarurligi; olingan namunaning qachon va kimga taqdim qilinishi kerakligi ko'rsatilishi lozim.

193-modda. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan namunalar olish tartibi



Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi namuna olinishi kerak bo'lgan shaxsni chaqirtiradi yoki u turgan joyga borib, uni namuna olish to'g'risidagi qaror yoki sudning o'ziga kelib tushgan ajrimi bilan tanishtirib tilxat oladi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, agar kimdir rad etilgan bo'lsa, bu masalani hal qiladi. Keyin tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruv uchun namunalar oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanishi mumkin.

Olingan namunalar o'raladi va muhrlanadi. Keyin *tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi* ularni namuna olish bayonnomasi bilan birga tegishli ekspertga yuboradi.

194-modda. Shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan namunalar olish tartibi

(Birinchi qism) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli shaxsni, shuningdek, undan namuna olish to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni shifokorga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi. Shifokorni, boshqa mutaxassisni, xolislarni rad etish masalasini qaror yoki ajrim chiqargan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hal qiladi.

(Uchinchi qism) Tekshirish uchun hayvonlardan namunalar olish zarurati tug'lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli qarorni yoxud ajrimni veterinarga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi.

195-modda. Ekspert tomonidan tajriba uchun namunalar olish

(Ikkinchi qism) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi bunday namunalarni tayyorlash chog'ida hozir bo'lishga haqli bo'lib, bu hol ular tomonidan tuziladigan bayonnomada aks ettiriladi.

(To'rtinchi qism) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi, sud muhokamasida esa sud va taraflar ekspert taqdim qilgan tajriba namunalari ko'zdan kechiradilar, shundan so'ng ular ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi.

Shuningdek, JPKning 197-, 202-, 205-, 207-, 208-, 213-, 217-, 226-, 382-moddalariga tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsini qo'shish bo'yicha tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga JPKni 329¹-modda bilan to'ldirish:

329¹-modda. Tergovga qadar tekshiruv ishtirokchilari hamda ularning huquq va majburiyatlari

Tergovga qadar tekshiruv davomida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar asosida tergovga qadar tekshiruvga jalb qilingan shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohning huquq va majburiyatlaridan foydalanadilar.

Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruv ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvga jalb qilingan shaxslar tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarorlari ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Jinoiy hodisadan jabr ko'rgan shaxslar va shohidlar bila turib yolg'on xabar, ko'rsatma berganlik va ma'lum bo'lgan holat, ma'lumotlarni yashirganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

329²-modda. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida o'tkaziladigan tergov va protsessual harakatlar.

Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish davomida hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek, shaxsni ushlab turish va ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, taqdim qilingan narsalar va hujjatlarni olish, ekspertiza uchun namunalar olish, ekspertizalar tayinlash va o'tkazish, yuzlashtirish, murdani eksqumatsiya qilish, guvohlantirish, taftish tayinlash, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish tergov va protsessual harakatlari o'tkazilishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat faktini tasdiqlash uchun zarurat bo'lgan hollarda boshqa tergov harakatlarini ham faqat sudning ruxsati bilan amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Bunda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ushbu zaruratni asoslovchi ish hujjatlarini sudga taqdim etadi.

329³-modda. Tushuntirishlar olish tartibi

Tergovga qadar tekshiruv davomida ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risida xabardor bo'lgan shaxslardan tushuntirishlar olinishi mumkin.

Shaxsdan tushuntirish olish yozma ravishda amalga oshiriladi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

1) tushuntirish olingan joy va sana, tushuntirish olish boshlangan va tugallangan vaqt;

2) tushuntirish olgan shaxsning lavozimi, unvoni, ismi, familiyasi va otasining ismi;

3) tushuntirish berayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash joyi, ish joyi va uning shaxsi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar, aloqa vositalari;

4) tushuntirish berayotgan shaxs qaysi tilda tushuntirish berishi, tarjimon va himoyachi xizmatidan foydalanishga ehtiyoji borligi.

Tushuntirish olishdan avval shaxsga ushbu kodeksning 51-, 71-moddalarida belgilangan huquq va majburiyatlar tushuntiriladi va bu haqda tushuntirish xatida qayd etiladi.

Tushuntirish xatida ko'rsatuvlar birinchi shaxs nomidan yozilib, unda sodir bo'lgan voqea, hodisa to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Bunda tushuntirish berayotgan shaxsga aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkin. Savollar va ularga javoblar tushuntirish olish davomida paydo bo'lgan ketma-ketlikda qayd etiladi.

Tushuntirish xati tushuntirish berayotgan shaxs, shuningdek, tushuntirish olgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi tomonidan imzolaniadi.

Tushuntirish berayotgan shaxs yolg'on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilib, tushuntirish xatiga bu haqda tegishli yozuv kiritiladi.



Tushuntirishlar olish ushbu kodeksda belgilangan tartibda videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda har jabhada bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

REFERENCES

1. Botayev M.D. Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish [Improving the institute of pre-investigation verification]. PhD thesis. Tashkent, 2020.
2. Sahaddinov S. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Reviews of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2014.
3. Hojakulov S.B. Processual harakatlar: tushunchasi, tasniflanishi va tizimlashtirilishi: [Procedural actions: concept, classification and systematization]. Tashkent, 2013, p. 63.
4. Xolboyev J.A. Yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazishda qo'llanadigan taktik usullarni takomillashtirish [Improvement of tactical methods used in conducting a facilitation investigative action]. Technical Munich University, Berlin, 2020, p. 66–71.
5. Qomus.info - online legal encyclopedia facilitation. Yuzlashtirish – Confrontation. Available at: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-yu/yuzlashtirish-uz/>
6. Yanovskiy R.S. K voprosu ob effektivnosti proizvodstva ochnoy stavki v ugolovnom sudoproizvodstve [On the issue of the effectiveness of confrontation in criminal proceedings]. *Gaps in Russian Legislation*, 2011, no. 6. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-effektivnosti-proizvodstva-ochnoy-stavki-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>
7. Belkin A.R. Processual'nyye problemy ochnoy stavki [Procedural problems of confrontation]. *Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2015, no. 3 (33), pp. 99–100.
8. Stepanov A.A., Dudin N.P. Taktika doprosa i ochnoy stavki: Nastol'naya kniga sledovatelya [Interrogation and confrontation tactics: Investigator's Handbook]. Eds. O.N. Korshunov, V.S. Shadrin. St. Petersburg, Law Center Press Publ., 2008, pp. 346–348.
9. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Reference No. 07/13-4853-150 dated 11.05.2023.

10. Directory of the Center for Legal Statistics and Operational Reporting. Data of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan on the dynamics of crime for 2018–2023.

11. Qomus.info [online legal encyclopedia exhumation]. Eks gumatsiya – Exhumation. Available at: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/eksgumatsiya-uz/>

12. Tibbiyot va salomatlik tibbiy ensiklopediya [Medicine and Health – Medical Encyclopedia]. Eks gumatsiya – Exhumation. Available at: <https://medlife.uz/encyclopedia/e/eksgumatsiya/>

13. Akhmadeeva O.V. Eks gumatsiya: istoriya razvitiya, provedeniye i osobennosti [Exhumation: the history of development, conduct and features]. *Legal Sciences*, Moscow, pp. 60–62.

14. Uarova M.A. Problema eks gumatsii kak osobogo sledstvennogo deystviya [The problem of exhumation as a special investigative action]. *Young Scientist*, 2014, no. 6.1, pp. 37–38.

15. Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan. Results of the business trip of the dated 27.04.2022 No. 15/07-2-62925/22-number reference entry number No. 2530.

16. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. No. 07/13-5226-177-number reference, 2164. 08.05.2023.

17. Department of investigation of the Republic of Uzbekistan. Results of the business trip reference No. 2429 of the dated 21.04.2022, No. 18/3383. 26.04.2022.

18. Eks gumatsiya “Zikr ahlidan so’rang” hay’ati [Exhumation “ask the people of zikr” committee]. Available at: <https://savollar.islom.uz/s/42257>

19. Nauchno-prakticheskiy kommentariy k Ugolovno-processual’nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Scientific and practical commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation]. Eds. V.M. Lebedev and V.P. Bozhev. Moscow, 2014.

20. Sysenko A.R. Osobennosti provedeniya eks gumatsii pri rassledovanii prestupleniy [Features of exhumation in the investigation of crimes] *Zakonodatel’sтво i praktika*. 2015. № 1. pp. 14–16.

21. Il’yashenko A.N., Lozovskiy D.N. Aktual’nyye voprosy proizvodstva eks gumatsii v ugolovnom sudoproizvodstve [Current issues of exhumation in criminal proceedings]. *Society and Law*, 2017, no. 1 (59), pp. 87–91.

22. Kriger A.E. Eks gumatsiya v sisteme sledstvennykh deystviy [Exhumation in the system of investigative actions]. Barnaul, 2014.

23. Egamberdiyev X.H. Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba [Improvement of the institution of inquiry before investigation: national and foreign experience]. PhD thesis. Tashkent, 2020, pp. 42–43.

24. Qurbonov D.M. Tergovga qadar tekshiruv: muammolar va takomillashtirish istiqbollari [Pre-investigation examination: problems and prospects for improvement]. *Investigative Practice*, pp. 35–40.

25. Rajabov B. Tergovga qadar tekshiruvni takomillashtirish istiqbollari [Prospects for improving the examination before the investigation]. *Review of Law Sciences*, 2020, pp. 209–212.



26. Kobulov B.Sh. Classification of measures within the framework of the mechanism for restriction of individual rights in pre-trial proceedings. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2023, no. 5, pp. 31–36. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume05Issue04-06

27. The Code of Criminal Procedure of France. Adopted on 12/23/1958. Entered into force on 03/02/1959.

28. The Criminal Procedure Act of South Korea (Hensa-soson-biop) Law No. 341 of September 23, 1954.

29. The Criminal Procedure Code of the Russian Federation No. 174-FZ of December 18, 2001.

30. The Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan, with amendments and additions as of 03.07.2023.

31. Criminal Procedure Code of the Kyrgyz Republic No. 129 dated October 28, 2021.

32. Criminal Procedure Code of the Republic of Belarus No. 295 dated July 16, 1999.

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.1.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR:

S. Samadov

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor.

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: Y. Mahmudov, M. Sharifova, Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2024-yil 26-martda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 9,3.

Adadi: 30. Buyurtma: № 39.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

Toshkent davlat yuridik universiteti ©